

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**Qo'l yozma huquqida
UDK: 330.1**

SHUXRATOV AZIZBEK BAXODIR O'G'LI

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI
BANDLIKNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

Mutaxassislik: 5A230102 – Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar _____

i.f.n., dots. L. Ulichkina

TOSHKENT – 2016

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

dots. L. Ulichkina

Kafedra mudiri

dots. D. Djumonov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

M U N D A R I J A

KIRISH.....

I-BOB XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA UNING BANDLIKDAGI O'RNI

- 1.1. Xizmat ko'rsatish sohasining mazmuni va mohiyati
- 1.2. Aholi ish bilan bandligi tushunchasi va uning nazariy asoslari
- 1.3. Xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligi va farovonligini oshirishdagi roli

II-BOB RESPUBLIKADA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI BANDLIGINING HOLATI TAHLILI

- 2.1. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojining aholi farovonligiga ta'siri
- 2.2. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi ko'rsatkichlari tahlili
- 2.3. Xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va ushbu sohani rivojlantirish yo'nalishlari

III-BOB XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

- 3.1. Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish muammolari
- 3.2. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish istiqbollari

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

KIRISH

Tatqiqot mavzusining dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish joylarini yaratish, haqiqiy mulkdorlar safini kengaytirish, mehnat resurslaridan samarali va adolatli boshqaruvchi rahbarlarni shakllantirish, ular uchun barcha jabhalarda qulay imkoniyatlar yaratishdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o‘zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta’minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishda va axoli daromadlarini oshirishda qanchalik o‘ta muxim rol uynashini albatta chuqur anglashimiz zarur”¹.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar iqtisodiyotning barcha sohalarini, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga zamin yaratdi. Xizmat ko‘rsatish sohasini mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikni oshirish yo‘llarini tadqiq etishda o‘z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida bandlikni oshirish bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim masalalardan biridir. Xususan, mulkchilikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb e’tirof etilayotgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlikni oshirishning istiqbolini belgilash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va shu masala yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish o‘ta muhimdir. Chunki bozor munosabatlarini takomillashtirishda, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, uning natijasida mamlakat budjeti barqarorligini ta’minlash, yalpi ichki mahsulotni (YaIM) ishlab chiqarish, aholi bandligini ta’minlash kabi

¹ Каримов И.А. 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий яқунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устивор йўналишларга бағишланган 2012 йил 20 январ куни Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамасининг Мажлисидаги маърузасидан. /Ҳалқ сўзи/ 21-январ 2012 й.

dolzarb muammolarni hal qilishga erishilmoqda. Mazkur sohani rivojlantirish uchun ma'lum shart-sharoitlarning yaratilishi, soliq, bojxona va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlarning belgilanishi, bank kreditlaridan samarali foydalanish natijasida qisqa davr ichida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan sub'ektlarining soni tobora oshib bormoqda.

Tadqiqot ishining predmeti va ob'ekti. Tadqiqotning predmeti iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi, ob'ekti esa xizmat ko'rsatish sohasidagi sub'ektlar hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida bandlik holatini va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish bo'yicha nazariy-uslubiy tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikning mohiyati va uni yanada rivojlantirishning nazariy asoslarini ochib berish;
- xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini ta'minlash hamda ular daromadini oshirish yo'llarini asoslash;
- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish bo'yicha chet el tajribasini o'rganish va ularning ijobiy tomonlarini respublikada joriy etish bo'yicha tavsiyalar berish;
- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tasniflash;
- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Ular quyidagilarda o'z aksini topgan:

- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikning mohiyati ochib berilgan;

- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish bo'yicha chet el tajribasi o'rganilib, ularning ijobiy tomonlarini respublika amaliyotiga joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan;

- xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va ularni tasniflash usuli asoslangan.

- aholining ish bilan bandligi xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha tahlil qilindi va Respublikadagi ish bilan bandlik tarkibi xolatiga baho berildi;

- xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali ish bilan bandlikni oshirish yo'nalishlari belgilandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ushbu disertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar aholi bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasining o'rnini baholashda, bu borada amaliyotidagi o'ziga xos muammolarni aniqlashga va ularni bartaraf etish hamda sohani rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: Mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hamda bandlikni oshirishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlari mavjud. Xizmat ko'rsatish sohasining nazariy asoslari va ijtimoiy ahamiyati A.Smit, J.B.Sey, Dj.M.Keyns, Y.Shumpeter, A.V.Chayanov², K.A.Raitskiy³, I.A.Juravleva⁴, A.P.Kiselev⁵ kabi iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular xizmat ko'rsatish sohasi nazariyasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu mavzu bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Xususan S.S.G'ulomov⁶, G'.H.Qudratov⁷, Yo.Abdullayev⁸, M.S.Qosimova⁹, B.Xodiyev¹⁰, A.Abdullayev¹¹, D.Suyunov¹², M.Q.Pardayev¹³, S.K.Salayev¹⁴,

² Каранг: Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: “Соц.экгиз”, 1962, -с.332.; Кейнс Дж. Общая теория занятости процента и денег. –М.: “Прогресс”, 1948, -с. 238-240; Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М.: “Мысль”, 1982, с. 159.; Н.Зверева. А.В.Чаянов. О размере семьи и крестьянского домохозяйства. // Вестник статистики. 1991, №7, с. 47.

³ Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник.- М.: ИВЦ “Маркетинг”. 2003. с. 683.

⁴ Журавлева И.А. Основные направления развития малого бизнеса в сфере услуг и их экономическое обоснование, Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Белгород-2005.

⁵ Киселев А.П. Теория и практика современного бизнеса. – “Либра”, 1995.- с. 246.

⁶ Гуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2002.- 365 б.

⁷ Кудратов Ғ.Х., Пардаев М.Қ., Абдукаримов Б.А. Сервис ривож – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омилли. Рисола. Т.: “Фан ва технология”, 2007. -16 б.

⁸ Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. 100 савол ва 100 жавоб (1-қисм), Т.- “Меҳнат”, 2000.- 347 б.

⁹ Қосимова М.С., Ходиев Б.Ю., Самадов А.Н., Мухитдинова У.С. Кичик бизнесни бошқариш. –Т.: “Ўқитувчи”, 2003.- 239 б.

¹⁰ Ходиев Б., Беркинов Б., Кравченко А. Бизнес қийматини баҳолаш. Т.: “Иқтисод-молия” 2007.- 254 б.

B.A.Abdukarimov¹⁵, G.S.Sevlikyans va E.N.Xadjayevlar¹⁶ kabilarning bu borada olib borgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Biroq, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Dissertatsiyani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, shu jumladan mantiqiy, statistik, matematik, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rovlar, sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishidan olingan natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy-amaliy tavsiyalari ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi sifatida ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishini keyinchalik tadqiq etish uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Dissertatsiya ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishi muammolarini o'rganish jarayonini to'ldiradi, shuningdek unda mehnatga layoqatli aholidan foydalanishni yaxshilash vazifalarini hal etishga oid aniq takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu dissertatsiyaning ilmiy-amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida, shuningdek iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadlarida, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi», «Mehnat bozori iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'qitish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, birinchi bobda xizmat ko'rsatish sohasi va uning bandlikdagi o'rni yoritilgan, ikkinchi bobda respublikada xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligining holati tahlili amalga oshirilgan hamda so'ngi bobda xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini

¹¹ Абдуллаев А., Сотволдиев А., Ўринбоев И, Абдуллаев С. ва бошқалар. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. – Т: “Фан ва технология”, 2005.- 243 б., Абдуллаев А., Муфтайдинов Қ., Айбешов Х. Кичик бизнесни бошқариш. – Т: “Молия” 2003.- 191 б.

¹² Суёнов Д.Х. Кичик ва ўрта бизнес субъектларида бошқарувни ташкил қилиш ва унинг самардорлигини ошириш йўналишлари: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т., ТДИУ, 2004.-23 б.

¹³ Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И. Хусусий корхоналар фаолияти таҳлилининг назарий ва методологик муаммолари, (Монография), Т: “Фан ва технология”, 2007.-163 б.

¹⁴ Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш: иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТДИУ 2008. -49 б.

¹⁵ Абдукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. – Т: “Фан ва технология”, 2007.- 386 б.

¹⁶ Севлякянц Г.С., Ходжаев Э.Н. Предпринимательство в Республике Узбекистан. -Т.: изд. Народного наследия им. А.Кадыри МГП “Ижод”, 1993. – 159 с.

oshirishdagi ahamiyatini oshirish masalalari baholanib, istiqbolli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

I-BOB. XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA UNING BANDLIKDAGI O'RNI

1.1.Xizmat ko'rsatish sohasining mazmuni va mohiyati

O'zbekistonning yangi bozor munosabatlariga o'tishi, uning o'ziga xos shart-sharoitlari, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama hisobga olgan holda ro'y bermoqda. Bunda jahon amaliyotida to'plangan va iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar ortirgan ijobiy tajribalar ham hisobga olinmoqda.

Xizmat deganda avvalo mehnat mahsulotini tushunish lozim. Ushbu mahsulotning asosiy belgilanishi bo'lib, insonlarning aniq talablarini qondirish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda xizmat-bu insonlarning ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Bizning fikrimizcha, **xizmat deyilganda insonning, xo'jalik yurituvchn subektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir extiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyatn tushuniladi.**

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlarning pirovard maqsadlari, bu eng avvalo, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Bu esa xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi muhim o'rin egallaydi. U milliy iqtisodiyot majmuining tarkibiy qismi bo'lib iqtisodiy munosabatlar umumiy tizimi tarkibiga kiradi va jamiyatdagi mavjud iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Hozirgi kunda tarmoqlarning xalqaro tasnifida ular uch sektorga bo'linadi:

- birlamchi (qishloq xo'jaligi, qazib olish sanoati),
- ikkilamchi (qayta ishlash sanoati)
- uchlamchi (xizmatlar sohasi yoki ijtimoiy soha).

Xizmat ko'rsatish sohasi — bu milliy iqtisodiyotning xizmatlar ko'rsatishga tegishli har xil tarmoqlar yig'indisidir. U ijtimoiy xarakterga ega: o'z xizmatlarini aholi bilan bir qatorda, yuridik shaxslarga ham taklif qiladi. Aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar – ijtimoiy xizmatlardir.

S.I. Ojegov tuzgan “Slovar russkogo yazыka”da “ijtimoiy” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: “Ijtimoiynyy. -aya, -oye. Obщestvennyy, otnosyashisya k jizni lyudey i ix otnosheniyam v obщestve”¹⁷. Bundan ko‘rinib turibdiki “ijtimoiy” atamasi ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, u insonlar hayotiga va ularning jamiyatdagi munosabatlariga taalluqlidir.

Xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy vazifasi — aholi hamda yuridik shaxslar uchun kerak bo‘lgan xizmatlarni yaratish hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlariga quydagilar kiradi: moliya, kredit va sug‘urta tizimi, chakana savdo, ta’lim, tibbiyot, uy-joy komunal xo‘jaligi, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘i, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san’at, atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy taminot va boshqalar.

Ular aholi va korxona(tashkilot, muassasalar)ning qandaydir ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlardir. Nazariy jihatdan xizmatlar sohasini ikki asosiy qismga — moddiy va nomoddiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga bo‘lish mumkin. Moddiy xizmatlar — ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish va ularni saqlash (savdo xizmatlari), uy-joy kommunal xo‘jaligi xizmati (gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi, uy-joy jamg‘armasining ekspluatatsiyasi, ko‘chalarni tozalash va boshqa), maishiy xizmat (poyabzal, kiyim-kechak, mebel, uy-joy texnikasi, avtomobil remontlari va hokazo). Nomoddiy xizmatlar — moddiy shaklga ega bo‘lmagan hamda iste’molchilarga moddiy boylik bermaydigan mehnatlar kiradi. Bu madaniyat markazlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim tarbiya, fizkultura va sport, dam olish va turizm, shuningdek, maishiy xizmatning nomoddiy xizmatlaridir (bolalar tarbiyasi xizmati, sartaroshlik, hammom xizmatlari va boshqalar).

Moddiy va nomoddiy xizmatlarga ehtiyoj ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, fan-texnika taraqqiyoti, iqlim, geografik tarixiy va milliy sharoitlar asosida vujudga keladi. Har xil xizmatlarga va iste’mol tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlar bir-biri bilan bog‘liqdir. Shu ehtiyojlarga ta’sir etadigan eng asosiy omil bo‘lib moddiy ishlab

¹⁷ Ожегов С.И. СЛОВАРЬ РУССКОГО ЯЗЫКА. Ок. 57000 слов. Под. Ред. д-ра филол. наук, проф. Н.Ю. Швердовой. — 12-е изд. — М.: Рус. яз., 1978, стр.692.

chiqarishning rivojlanish darajasi hisoblanadi. Ayni paytda, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar ishlab chiqarishga (moddiy ishlab chiqarishda yangi ishlab chiqarishning paydo bo'lishiga, eski ishlab chiqarishning kengayishiga) ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda bu munosabatlarni davlat tartibga soladi va rejalashtiradi.

Moddiy xizmatlarga va iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarni to'g'ri va sifatli aniqlash moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun asosiy sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi. Soha xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarga aholi soni, uning daromadlari, baholar darajasi, korxona(tashkilot, muassasalar) soni va ularning texnik jihatdan jihozlanish darajasi va boshqalar katta ta'sir etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi (iqtisodiy munosabatlarda) o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi sohadan (sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqalardan) o'zining yo'nalishi bilan farq qiladi. Bu soha faoliyati inson hayoti uchun ijtimoiy sharoitlar hamda korxona(tashkilot, muassasalar) faoliyatining uzluksiz davom etishiga qo'layliklar yaratishga qaratilgan;

- xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat ishlab chiqarishdagi mehnatdan tubdan farq qiladi. Soha xizmatchisi mehnati jismoniy va yuridik shaxslar ehtiyoj (talab)lariga bog'liq bo'lib, unda faoliyat yuritayotgan xizmatchilardan fidoyilikni talab qiladi;

- sohada tabiiy omil ishlab chiqarishdagidek muhim emas;

- xizmat ko'rsatish sohasi nisbatan kamroq mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiriladi;

- soha xizmati iste'mol uchun xizmat qiladi;

- xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari (jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari) mamlakatning barcha hududlarida joylashgan. Boshqa soha tarmoqlari bunday xususiyatga ega emas;

- xizmat ko'rsatish sohasining ayrim tarmoqlarini moliyalashtirish ikki usulda: smeta va budjetdan tashqari mablag'lar asosida amalga oshiriladi;

- soha xizmatchilariga maosh berishni tashkillashtirishning o'z xususiyatlari mavjud.

Xizmat ko'rsatish sohasining resurs manbalari asosan inson mehnati bilan bog'liq. Ishlab chiqarishda 60 foizdan ko'proq xom ashyo va materiallardan foydalanilsa, xizmat ko'rsatish sohasida bunday resurslar kam ishlatiladi. Sohada nisbatan kam material harajatlardan foydalanilib, ko'proq xizmat ko'rsatiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida moddiy resurslar joriy xarajatning moddiy elementlarini o'z ichiga oladi. Ularga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (kitoblar, oziq-ovqatlar, darsliklar), elektr energiya, yoqilg'i, butlovchi qismlar va boshqalar kiradi. Xizmat ko'rsatish sohasi moddiy-texnik bazasining asosini — uzoq muddatli aktivlar tashkil etadi. Bularga binolar, qurilishlar, transport vositalari, asbob-uskunalar va hokazolar kiradi. Moddiy-texnika bazasining rivoji albatta yuqoridagi elementlarning o'zgarishiga bog'liq.

Shu nuqtai nazardan soha moddiy-texnika bazasi rivojlanishining quyidagi asosiy yo'nalishlarini qayd etish mumkin:

- soha tarmoqlarini kengaytirish va xodimlarni kerakli asbob uskunalar, iste'molchilarni esa zarur ehtiyoj predmetlari bilan ta'minlash;
- iste'molchilarga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish (maktablarda har bir o'quvchi uchun belgilangan o'rin soni, shifoxonada bemorlar uchun joy, xizmat o'rinlarini yaxshilash va hokazo);
- xizmat turlari moddiy resurslarini boyitish (diagnostik-davolash uskunolari, video texnika, kompyuterlar bilan ta'minlash);
- jonli mehnat xizmat turi harajatlarini kamaytirish.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining vazifalari quyidagicha:

- xizmat ko'rsatish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish orqali sohani yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish;
- respublika milliy xususiyatini hisobga olganda xizmat ko'rsatish sohasiga tegishli bo'lgan muassasalarni qishloq joylarida yuqori sur'atlar bilan

rivojlantirish va buning natijasida qishloq va shahar aholisining turmush darajasidagi bo'lgan farqni kamaytirish;

- aholiga ko'rsatilayotgan umumiy xizmatlarda imtiyozlar asosida ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini oshirish (ta'lim va sog'liqni saqlash tarmoqlari xodimlariga hamda pensionerlarga ko'rsatiladigan ayrim maishiy xizmatlar va hokazo);

- soha tarmoqlariga milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarida band bo'lgan mehnat resurslarni jalb qilish va ularga o'z salohiyatlaridan to'liq foydalanishga imkon berish;

- milliy iqtisodiyotning barcha sohalarini uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlarni yetkazib berish;

- aholining bo'sh vaqtini ko'paytirishga va shu vaqtdan oqilona foydalanishga sharoit tug'dirish.

Yangi qiymat yaratadigan xizmatlar – ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'ladi. Bularga maishiy xizmat tarmog'ining kiyim kechaklarni tikishi, uylarni qurish, iste'molchining buyurtmasi bo'yicha tovarlarni iste'molchiga yetkazib berish va boshqa xizmatlar kiradi. Noishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan xizmatlarga yangi yoki qo'shimcha qiymat yaratadigan xizmatlar kiradi: sartaroshlik xizmatlari, madaniyat va san'at muassasalari xizmatlari va hokazolar.

Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida ishlaydigan xodimlar malakali mutaxassislar bo'lib, oliy yoki o'rta maxsus ta'limga egadirlar: tibbiyot, maorif, madaniyat va sa'nat sohalarida. Shuning uchun ham, ta'lim darajasi bo'yicha, ijtimoiy soha tarmoqlarida band bo'lgan mutahassislar umuman milliy iqtisodiyotda band bo'lgan mutaxassislarga nisbatan yuqoriroq.

Yangi bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirilayotgan islohatlar aholining barcha qatlamlariga, shuningdek, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soha xizmatlaridan foydalanishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlar va ularni harakatlantiruvchi mexanizmlar xususida aniq tassavurga ega bo'lish uchun ularning mazmun-mohiyatini bilmoq zarur bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan xizmatlar

ko‘rsatish sohasining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq qilish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Lug‘atlarda “xizmat” va “servis” tushunchalarning lug‘aviy ma’nolari keltirilgan bo‘lsa, iqtisodiy adabiyotlarda bu tushunchalarning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Jumladan, S.I. Ojegov tuzgan “Slovar russkogo yazyka”da “Usluga. 1. Deystviye, prinosyayemye polzu, ... 2. Бытовые удобства, предоставляемые кому-н.”, ya’ni “naf keltiruvchi harakat”, “kingadir maishiy sharoit taqdim etish”, degan ma’noda izoh berilgan. Ushbu lug‘atda: “Servis. То же, что обслуживание”, ya’ni “servis ham xizmatdir”¹⁸, deyilgan. Demak, mazkur lug‘atda “xizmat” va “servis” bir xil va ular “kingadir maishiy sharoit yaratadigan, naf keltiradigan harakat”, deb qaraladi. AQShning Nebraska shtati Universiteti iqtisodiyot professori Kempell R. MAKKONNELL va Vashington shtati Tinchokean Lyuteran Univesiteti iqtisodiyot professori Stenli L. BRYularning “Yekonomiks: Printsipy, problemy i politika” nomli asarining “Tushunchalar va atamalar lug‘ati” qismida (2-nchi tom) “Usluga (service) – to, что неосызайемо (nevidimo) i v obmen na что потребител, фирма или правительstvo gotovy predostavlyat что-либо tsennoye”, ya’ni “xizmat – bu sezib bo‘lmaydigan (ko‘zga ko‘rinmaydigan) va uning o‘rniga qiymatga ega bo‘lgan qandaydir narsani iste’molchi, firma yoki hukumat tomonidan taqdim etilishidir”¹⁹.

Qayd etilgan manbalarda keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki – “xizmat” va “servis” mazmunan o‘xshash va ma’lum bir qiymatga ega kategoriyalar bo‘lib, o‘z istemolchilariga naf keltiradigan faoliyat (harakat) turidir. Bizning fikrimizcha, “xizmat” tushunchasi “servis” tushunchasini o‘z ichiga qamrab oladi. “Servis” tushunchasi “xizmat” tushunchasini to‘ldiradi, u qo‘shimcha xizmat ko‘rinishida bo‘ladi. Ma’lumki, avtomashina ishlab chiqarilishi, dastlab, ularning savdosini tashkil etishga zaruriyat tug‘dirdi. Bu xizmatning dastlabki, asosiy bosqichidir. Keyinchalik esa uni ta’mirlash, yonilg‘i

¹⁸ Ожегов С.И. СЛОВАРЬ РУССКОГО ЯЗЫКА. Ок. 57000 слов. Под. Ред. д-ра филол. наук, проф. Н.Ю. Швердовой. – 12-е изд. – М.: Рус. яз., 1978, стр.771.

¹⁹ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 Т.: Пер. с англ. Т. 2. –Таллин, 1993, стр.398.

bilan ta'minlash, texnik qarovdan o'tkazish va boshqa qo'shimcha xizmat (servis xizmat)larga ehtiyojlar yuzaga keldi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “xizmat” va “servis” tushunchalari xususida bir qator fikrlar mavjud. Ularning ayrimlarini quyida keltiramiz. I.Ochilovning fikricha “... **xizmat deyilganda insonning, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, davlatning va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi**”²⁰. “Xizmat” va “servis” tushunchalariga birgalikda kengroq ta'rifni M.Q. Pardayev bergan. Uning e'tirof etishicha “**servis deganda insonlarning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, kishilarning naf keltiradigan, ma'lum sertifikat va andozalarga ega, sifat jihatidan yuqori bo'lgan xizmat jarayoni bilan bog'liq ongli faoliyati tushuniladi. Ko'rinib turibdiki, xizmat nafaqat insonlarga, balki korxonalarga, jamiyatga, davlatga ko'rsatilsa, servis asosan aholiga, odamlarga ko'rsatiladigan sifatli xizmat bo'lib hisoblanadi**”²¹.

Xizmatlar – pullik, bepul va imtiyozli xizmatlarga bo'linadi. Pullik xizmatlarga maishiy xizmat, passajir transporti va aloqa, huquq xarakteridagi xizmatlar, turistik xizmatlar va boshqalar kiradi. Bepul xizmatlar – jamoat iste'mol jamg'armasi hisobiga ko'rsatiladigan sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, maorif xizmatlaridir. Imtiyozli xizmatlar qisman aholi tomonidan, qisman esa jamoat iste'mol jamg'armasidan to'lanadi. Yangi bozor munosabatlari sharoitida yil sayin aholiga pullik xizmat ko'rsatish, ularning yangi turlarini yuzaga keltirish hisobiga ortib boradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, xizmat (jumladan, servis) iqtisodiy faoliyatning muhim bir shakli. U moddiy va nomoddiy ko'rinishga ega bo'lib, aholi va yuridik shaxslar ehtiyojlarini (talab chegarasida)

²⁰ Очиллов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг таснифи. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.(монография) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008, 18 бет

²¹ Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари (назарий жиҳатлар).//Сервис. – Самарқанд, 2009. -№ 1, 37-44 бетлар.

qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Bunda, tabiiyki, iqtisodiy munosabatlar amal qiladi.

Xizmat iqtisodiy kategoriya sifatida insonlar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moddiy hamda nomoddiy tushdagi xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari (talabi)ni qondirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

1.2. Aholi ish bilan bandligi tushunchasi va uning nazariy asoslari

“Bandlik” tushunchasi foydalanishga yaroqli bo'lgan resurslar barcha turlari (ishchi kuchi, kapital, yer, tadbirkorlik layoqati) ning iqtisodiy nafli faoliyatda foydalanishga jalb qilinganlik darajasini anglatadi.

Mamlakatdagi mavjud mehnat resurslari, foydalanishga yaroqli bo'lgan yerlar va boshqa tabiiy resurslar, asosiy va aylanma kapital hamda pul mablag'larining takror ishlab chiqarishga foydalanishga tortilgan qismining ularning umumiy hajmidagi nisbiy ulushini ko'rsatadi.

Bandlikning yuqori darajasiga erishish davlat makroiqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan bo'lib, bu jamiyatning provard mahsulotlari miqdorini ko'paytirish va aholi ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish imkonini beradi.

Iqtisodiy fanda “bandlik” tushunchasi ko'proq mehnat resurslariga tatbikan qo'llaniladi. Mehnat resurslari bandligi kishilar faoliyatining asosiy shakli bo'lib, ishchi kuchi, energiyasi va vaqt sarfini taqozo etadi hamda insonlar mavjud bo'lishining hayotiy shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Bandlik va ishsizlik muammosi milliy va jahon xo'jaligining siklik rivojlanishi, ular iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar, demografik va ma'daniy – maishiy jarayonlar hamda ishchi kuchi bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq.

Bandlik nazariyasi o'zining evolyutsion rivojida uzoq yo'lni bosib o'tgan bo'lib, turli-tuman g'oyaviy yondashuvlar, tadqiqotning har xil usul va dastaklari bilan tavsiflanadi.

Bandlikning klassik nazariyasida, to'liq bandlik sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotib olish uchun sarflar darajasi yetarlicha bo'lmaydi. Boshqa tomondan, umumiy sarflar darajasi yetarlicha bo'lmagan taqdirda ham tartibga solishning narx, ish haqi va foiz stavkasi kabi dastaklari ancha tez amal qilib, natijada umumiy sarflarning kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar qisqarishini keltirib chiqarmasligi mumkin.

Sarflar darajasi yetarlicha bo'lmashligining klassik nazariyasini inkor qilish qisman Sey qonunida asoslanadi. Sey qonuniga ko'ra tovarlarni ishlab chiqarish jarayoni ularning qiymatiga teng bo'lgan daromadlarni vujudga keltiradi. Bu mahsulotning har qanday hajmini ishlab chiqarish uni sotib olish uchun zarur bo'lgan daromadlarni avtomatik ravishda ta'minlashini anglatadi. Taklif o'zining xususiy talabini vujudga keltiradi. Biroq jamg'arma bu jarayonni murakkablashtiradi, ya'ni daromad oluvchi uni to'liq sarflashi kafolatlanmagan.

Iste'molchi pul daromadining qandaydir qismi ushlab qolinib, bu talabda o'z ifodasini topmasligi hamda daromadlar va sarflar oqimida uzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Jamg'arma yetarlicha iste'mol qilmaslikka olib keladi va Sey qonuni samarali amal qilmasligiga sabab bo'ladi. Natijada ishlab chiqarishning qisqarishi, sotilmagan tovarlarning to'planishi, ishsizlik va daromadlar kamayishi ro'y beradi.

Iqtisodchi klassiklar, real hayotda jamg'arma talab taqchilligiga olib kelmasligi har bir jamg'arilgan summa tadbirkorlar tomonidan investitsiyaga yo'naltirilishi ta'kidlanadi. Shunday ekan, jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'mol sarflaridagi har qanday "taqchillik" ni investitsiyalar to'ldiradi.

Agar uy xo'jaliklari pul daromadlaridan qanchasini jamg'arishni ko'zda tutgan bo'lsa tadbirkorlar ham shuncha investitsiya qo'yadigan bo'lsa, Sey qonuni amal qila boshlaydi.

Demak bunda, ishlab chiqarish va bandlik darajasi doimiy bo'lib qoladi.

Klassiklar bozor xo'jaligi "o'z-o'zicha rivojlanadi", shu sababli iqtisodiyot ishlab chiqarishning to'liq hajmiga va to'liq bandlikka erishishiga layoqatli,

davlatning aralashuvi tizimining samarali amal qilishiga faqat izdan chiqarish mumkin deb hisoblaydi.

Bandlikning neoklassik nazariyasi vakillari (A.Laffer, r.Xoll, D.Dilder va boshqalar.) qarashlariga klassik nazariyadagi qoidalar asos qilib olingan. Ular tomonidan, mehnat bozoriga, bozor iqtisodiyoti qonunlariga bo'ysunuvchi, tarkiban bir xil bo'lmagan, rivojlanib boruvchi tuzilmasi sifatida qaraladi.

Ish haqi darajasi (mehnat bahosi) ishchi kuchiga talab va taklifiga ta'sir ko'rsatadi, ular nisbatini tartibga soladi hamda ular o'rtasidagi zaruriy muvozanatlikni ushlab turadi. Ishchi kuchi bahosi bozor kon'yunkturasiga tez va oson sezadi, unga bo'lgan haqiqiy ehtiyojga bog'liq ravishda ortadi yoki kamayadi. Ish haqining ortishi yoki pasayishi orqali ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklif tartibga solinadi. Agar ishchi kuchining taklifi talabdan ortib ketsa, ishsizlik kelib chiqadi, u ish haqi stavkasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi va bu pasayish mehnat bozori muvozanatlikka erishguncha davom etadi.

Bandlikning Keynscha nazariyasi. Dj.Keyns klassiklarning ilmiy g'oyalari asoslarini tanqid qilib aralashish iqtisodiyotda bandlik nazariyasining asoslaridan bo'lib qoldi.²²

Keynscha bandlik nazariyasining mazmuni quyidagilardan iborat: bozor iqtisodiyoti (kapitalizm) da to'liq bandlikni kafolatlovchi hech qanday mexanizm mavjud bo'lmaydi; iqtisodiyot ishsizlik va inflyatsiyaning muayyan darajasida muvozanatli rivojlanishi mumkin, to'liq bandlik favqulodda holat, qonuniyat emas va shu sababli kapitalizm o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim hisoblanmaydi.

Keynschilar uchun yalpi talabning o'zgaruvchanligi va narxning noegiluvchanligi pasayish tomonga moyilligi bozor iqtisodiyotida ishsizlik uzoq davr davomida saqlanib qolishi va ortib borishi mumkinligini anglatadi. Shu sababli turg'unlik va inqirozlar oqibatida qayta yo'qotishlardan qochish uchun davlat tomonidan yalpi talabni tartibga solishga qaratilgan faol makroiqtisodiy siyosat zarur.

²² “Бандлик, фойиз ва пулнинг умумий назарияси” (1936 й.) китобида асосий ғояларнинг мазмуни баён қилинади.

Bandlikning monetar nazariyasi. Monetarizmga A.Marshalning pulning miqdoriy nazariyasi, narxning nisbiylik nazariyasi, L.Valrasning bozor muvozanati nazariyasi, Filips egri chizig'i g'oyasining qisqa muddatli muqobili, investitsiya – jamg'arma – mehnat – pulning Keynscha modeli g'oyaviy va uslubiy asos hisoblanadi.

XIX asrning 60 yillarida M.Fridmen mavjud g'oyalar²³ asosida pulning miqdoriy nazariyasini isloh qildi. Uning asosiy g'oyasi pul massasi o'zgarishining narx darajasiga bevosita ta'sirini tan olishdan iborat. Fridmen fikricha "pul narx o'zgarishi uchun ahamiyatli", muhimi "pul bozori holatiga foiz stavkasi emas, aynan pul miqdori yoki kredit berish shartlari ta'sir ko'rsatadi"

Pulning miqdoriy nazariyasiga monetar yondashuv quyidagi qoidalarga asoslanadi.

- ✚ Pulning miqdoriy nazariyasi eng avvalo pulga bo'lgan talab nazariyasidir (pul daromadi, narx darajasi, ishlab chiqarish nazariyasi emas)
- ✚ Iqtisodiy sub'ektlar (gumashtalar) va mulk egalari uchun aktivlarning bir turi, boyliklarga egalik qilish shakli hisoblanadi.
- ✚ Iqtisodiy sub'ektlar tomonidan pulga bo'lgan talab tahlili rasman iste'mol ne'matlarga talab tahlili bilan bir xil.

Monetaristlar pulning miqdoriy nazariyasini ishlab chiqarish bilan bog'laydi. Ular yondashuvida pul massasi (miqdori) ning o'zgarishi ishlab chiqarish jarayoni tebranishini tushuntirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shunga asosan monetaristlar pul-kredit siyosati iqtisodiyotni tartibga solishning eng samarali dastagi degan xulosani chiqaradi.

Monetarizm vakillari iqtisodiy siklni tushuntirishda real daromad, bandlik va narxlarning umumiy darajasi o'zgarishida pul massasi favqulotda muhim rolni o'ynashini e'tirof etadi.

Muayyan davr oralig'ida pul massasining o'zgarishi bir vaqtda ham narx darajasiga va ham ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

²³ И.Фитернинг трансакцион муқобилли, нақд пул қолдиқларининг кембриж муқобили, И.Фитер ва КСнайдернинг даромадлар муқобили.

M.Fridiyen Federal zahira tizimi tomonidan o'rnatiladigan pulning nominal miqdori o'zgarishi qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmi va bandlikka, uzoq davrda esa narxlarga ancha samarali ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaydi. Shunga ko'ra u pul massasi o'zgarishi va iqtisodiy faollikning siklik tebranishi o'rtasida ancha barqaror bog'liqlik mavjud bo'lishini qayd qiladi.

Ingliz iqtisodchisi P.Braunin qarashi bo'yicha ish haqi mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi nisbati bilan aniqlanadi, iqtisodiy sub'ektlar ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatish maqsadida o'zlarining pulga bo'lgan talabini ularning taklifiga muvofiqlashtiradi. Daromadlar miqdori ham pulga bo'lgan talab va taklifga bog'liq qilib qo'yiladi. Bandlik real ish haqi darajasi bilan aniqlanadi, narxning mutloq darajasi esa pul massasiga bog'liq bo'lmaydi. P.Braunin bunday sharoitda to'liq bandlikka faqat ish haqini pasaytirishi hisobiga erishish mumkinligini qayd qiladi.

Shunday qilib, monetaristlar barcha iqtisodiy jarayonlarni pul massasidagi tebranishlar bilan bog'laydi. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmidan har qanday farqlanishlar pulga bo'lgan talabni uning taklifi bilan muvofiqlashtirish orqali bartaraf qilinadi, shunday ekan monetaristlarning pul orqali tartibga solishga ustuvorlik berishi o'z o'zidan aniq bo'lib qoladi.

"To'liq bandlik" nazariyasi ishchi kuchining 100% dan kam miqdorini tashkil qiluvchi bandlik sifatida aniqlanadi. To'liq bandlik sharoitida ishsizlik darajasi friksion va tarkibiy ishsizlar darajasi miqdoriga teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, iqtisodiyotda siklik ishsizlik mavjud bo'lmaganda to'liq bandlikka erishiladi. To'liq bandlik sharoitida ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deyiladi va u ishchi kuchining 5-6 % ni tashkil qiladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog'liq milliy ishlab chiqarishning real hajmi iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsiali deyiladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi o'z-o'zicha doimiy miqdor hisoblanmaydi, qonunchilik va jamiyatdagi udumlar o'zgarishi natijasida bu ko'rsatkich ham o'zgarishga uchrab turadi.

Hozirgi davrda industrial rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ishsizlikning tabiiy darajasi XIX asr 60-yillaridagidan bir muncha yuqori. Bu ishchi kuchining demografik tarkibi va muassasaviy o'zgarishlar natijasida ro'y bergan.

Masalan, ayollar va yosh ishchilar ishchi kuchining nisbatan ancha muhim tarkibiy qismiga aylanib borishi, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash dasturlarining kengayishi va ishsizlik nafaqalari miqdorining ortishi friksion ishsizlarning ko'payishiga olib keladi.

Bandlikning shartnoma nazariyasi (M.Beyli, D.Gordon, K.Azarnadis) yangi klassik maktab vakillari va keynschilar g'oyalarini uyg'unlashtirishga asoslangan konsepsiya hisoblanadi. Ular bir tomondan, keynsning nominal ish haqining barqarorligi (o'zgarmasligi) to'g'risidagi fikrini asos qilib, mehnat bozorida muvozanatlik narx ta'sirida emas, ishlab chiqarishning hajmi va bandlik o'zgarishi hisobiga ro'y beradi, deb hisoblaydi.

Boshqa tomondan, ish haqining barqarorligi o'z iqtisodiy manfaatlari uchun harakat qiluvchi individlarning xulq atvoridan keltirib chiqariladi.

Bandlikning mazkur nazariyasi negizida tadbirkor va ishchilar o'rtasida vujudga keladigan uzoq muddatli shartnoma munosabatlarining qoidalari yotadi.

Har ikki tomon shartnoma shartlariga mazkur hujjat huquqiy kuchga ega bo'lgani uchun emas, balki iqtisodiy manfaatdorligi tufayli amal qiladi. Korxonalar ishlab chiqarishning turg'unlik va inqiroz davrida malakali xodimlar ish haqini pasaytirmaydi, yuksalish davrida esa uni keskin oshirmaydi. Nominal ish haqi dinamikasi birtekis ro'y berib, uning darajasi muayyan bashorat qilingan chegarada o'zgaradi.

G'arbdagi ancha yuksak rivojlanishiga erishgan mamlakatlar iqtisodiyotida ro'y bergan tarkibiy o'zgarishlar natijasida XIX asrning 70-yillarida moslashuvchan bozor konsepsiyasi (R.Buaye, G.Stending) ancha keng tarqaldi.

Unga mehnat bozorini qayta reglamentlash zarurligi to'g'risidagi qoida, bandlikning ancha moslashuvchan, vazifasiga ko'ra individuallashtirish va

nostandart (qisman bandlik, to'liq bo'lmagan ish kuni yoki haftasi, qisqa davrli shartnomalar, uyda ishlash) shakllariga o'tish to'g'risidagi qoida asos qilib olinadi.

Bunday yondashuv iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta qurishlar sarf-xarajatlarini kamaytirishga qaratiladi va quyidagilar hisobiga erishiladi:

- Ishga yollash va bandlik shakllari moslashuvchanligi xilma-xilligi;
- Ish vaqtini tartibga solishning moslashuvchanligi, me'yorlashtirilmaydigan ish kunlarida ishlashning ancha harakatchan tartibini o'rnatish;
- Ish haqining ancha tabaqalashgan yondashuv asosida moslashuvchanligini tartibga solish;
- Ishchi xodimlarni ijtimoiy himoyalash shakllari va usullari moslashuvchanligi
- Mehnat bozorida talab va taklif tebranishlariga ishchi kuchi soni, tarkibi, sifati va ish haqi stavkasi moslashuvchanligi.

Umuman olganda bandlikning moslashuvchan konsepsiyasi ish beruvchi va ishchi-xodimlar o'zaro munosabatlarining turli-tuman shakllarini qaror topshirishni taqozo etadi hamda jami xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va ishchi kuchi bozorining yuqori jo'shqinligini ushlab turishni ko'zda tutadi.

Marksning bandlik konsepsiyasi fan-texnika taraqqiyoti natijasida kapitalning organik tuzilishi sekin-asta o'sishiga olib keladigan kapitalistik jamg'arish qonuniga asoslanadi.

Bu o'sishni kapitalning umumiy miqdorida o'zgaruvchi qismining ulushi kamayib borishi keltirib chiqaradi. Shu sababli, ishchi kuchiga talab, uni sotib olishga avanslangan o'zgaruvchi kapital miqdori bilan aniqlanadi, bu ulushning kamayishi mehnat resursiga talabning nisbatan qisqarishi taqozo etadi, ayni vaqtda uning taklifi ortadi. Ishchi kuchi taklifining ortishi aholining tabiiy o'sishi hamda mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning sinishi hisobiga ro'y beradi. Shu sababli, ishsizlarning mavjud bo'lishi kapitalistik takror ishlab chiqarish uchun ob'ektiv zaruriyat deb hisoblanadi.

Iqtisodiyot yuksalishi bosqichida joylashganda yoki xo‘jalik faoliyatining yangi yo‘nalishlari shakllanganda, ishchi kuchi zaxiralari mavjud bo‘lganda uni zaruriy qo‘shimcha mehnat resurslari bilan ta‘minlaydi.

Bu yondashuv texnika taraqqiyotining rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining tamoyillarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat qaratib, moddiy ishlab chiqarish sohalarida kapitalning organik tuzilishi o‘rishiga olib kelishi mumkinligi to‘g‘risidagi qarashlari haqiqatga yaqin bo‘lib, u o‘zining ko‘lami bo‘yicha band bo‘lganlarning keng miqyosda qishloq xo‘jaligi va sanoatdan siqib chiqarilishiga sabab bo‘lgan.

Biroq Marks xo‘jalik faoliyatida mehnat sig‘imli sohalar (savdo va xizmat ko‘rsatish) paydo bo‘lishi va rivojlanishini oldindan ko‘ra bilmagan. Mazkur soha va tarmoqlar bo‘shagan ishchi kuchini “yutib” ketuvchi rolni bajarib, natijada kapitalning umumiy organik tuzilishida keskin va tub o‘zgarishlar ro‘y bermagan.

Biroq hozirgi vaqtda yangi mehnat sig‘imli sohalar texnikaviy ta‘minlanishning ortishi va texnologik inqilobning ro‘y berishi ta‘sirida kapital organik tuzilishi ko‘lamli o‘rishi bilan bandlik muammosining dolzarbligi yanada ortmoqda.

Bandlik to‘g‘risidagi turlicha nazariyalar mavjudligi, bu muammo bozor iqtisodiyotining muhim masalalaridan biri ekanligidan guvohlik beradi. Mazkur muammoni hisobga olmasdan iqtisodiyotning samarali faoliyatini ham ta‘minlash mumkin emas.

1.3. Xizmat ko‘rsatish sohasining aholi bandligi va farovonligini oshirishdagi roli

Shuni ta‘kidlash kerakki, so‘nggi yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoqda. Xizmatlar bozori tarkibi xizmatlarning yangi istiqbolli turlari – bank-moliya, sug‘urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va boshqalarni rivojlantirish hisobiga takomillashib bormoqda. Oilalarni murakkab maishiy texnika, kompyuterlar va shaxsiy

avtotransport bilan ta'minlashning keskin oshishi ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning jadallik bilan ko'payishiga imkon yaratdi.

Ammo, tan olish kerakki, haqiqatda mazkur sohani rivojlantirishda jiddiy kamchiliklar ham yo'q emas. Ayniqsa, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy budjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish va servis imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi ayniqsa qishloq joylarda juda sust rivojlanmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida ushbu soha juda tez rivoj topadigan sohalaridan biridir. Chunki, shuni e'tirof etish kerakki, ushbu soha juda katta mablag' talab qilmaydigan, kichik va xususiy tadbirkorlikka mos va juda tez rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir.

Mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, barqarorlik va fuqarolar hamjihatligi respublikamizda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohadagi tub islohotlar muvaffaqiyatiga tobora bog'liq bo'lib bormoqda. Mustaqillik yillari davomida aholini ish bilan ta'minlashga barcha sharoitlar yaratib berildi. Bandlik tuzilmalari takomillashtirildi, mehnat faoliyati turlari kengaytirildi va mehnatga bo'lgan munosabatda ko'zga ko'rinarli ijobiy siljishlar yuz berdi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida mehnat bozorini tartibga solish, bu boradagi tashkiliy-huquqiy negizlarni takomillashib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Iqtisodiy islohotlarning ayni davrdagi ustuvor vazifalaridan biri esa aholini xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari bo'lib, mamlakatda tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamini shakllantirishni kengaytirish va asosan shu orqali aholi bandligini, iqtisodiy o'sishni taminlashga erishishdan iboratdir.

Darhaqiqat, aholini ish bilan band etish masalalarini bartaraf etishda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati beqiyosdir. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish aholi bandligi darajasini oshishiga jiddiy tasir qiladi. Bundan tashqari, mazkur sohada yangi ish o'rinlarini tashkil etilishi budjetni iste'molga ajratadigan harajatlarini yengillashtirishga imkon beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish natijasida mamlakatimizda quyidagi ijobiy jarayonlar ro'y bermoqda:

- yangidan yangi sohalar ishga tushirilmoqda;
- iste'mol mollarining turi ko'paymoqda;
- davlat budjeti profitsitiga erishilmoqda;
- ishsizlikning muammolari bartaraf etilmoqda va hokazo.

2015 yilga kelib iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar davom etdi. Mamlakatimizda modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari chuqurlashib bordi. Oqibatda bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishga bo'lgan imkoniyatlar ko'lami kengaydi. Ayniqsa xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi kichik biznes sub'ektlarining jadal rivojlanishi kuzatildi. Buni yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelganligining o'zi tasdiqlab turibdi. Qolaversa, bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,5 foizga yetdi. Bu esa 2010 yildagi holatdan 5,5 punktga oshganligini ko'rsatmoqda. Jami aholi bandligida 50% dan ko'pi xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat qilayotganligini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, respublikamizda barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining 50 foizidan ortiqrog'i va shu korxonalarda hamma band bo'lganlarning choragidan ko'prog'i xizmat ko'rsatish sohasiga, aniqrog'i, umumiy ovqatlanish va savdo sohasiga to'g'ri keladi. Bu sohalarni rivojlanishi iqtisodiyotning taraqqiyoti uchun foydali. Ammo boshqa tarmoqlarning rivojlanishi dinamikasida ham bu kabi sezilarli darajadagi o'zgarishlarga erishib bormog'imiz kerak.

Biroq, shunga qaramay ayni davrda ish bilan band etish masalalarida o'ziga xos muammolar yo'q emas. Chunki O'zbekiston aholisi bugungi kunda 30 mln. kishidan oshmoqda. Har yili mehnat resurslari tarkibiga 500 mingdan ziyodroq kishi qo'shilib borayotganligini aytadigan bo'lsak ish bilan band etishdagi muammolarni yanada keng ko'lamda hal etish talab etiladi. Qolaversa, nafaqadagi ayrim shaxslarning mehnat qilishga bo'lgan ishtiyoqlari bandlikni ta'minlashdagi jarayonlarni yanada jiddiylashtiradi.

Shuning uchun 2016 yilda “Aholi bandligini ta’minlash masalasi ham eng muhim vazifamiz bo’lib qoladi. 2016-yilda 990 mingga yaqin yangi ish o’rni yaratish mo’ljallanmoqda, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko’rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o’rni yaratiladi. 2016-yilda oliy o’quv yurtlari, litsey va kollejlarning 510 mingdan ortiq bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashimiz darkor”²⁴.

Shunday ekan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylarida yangi ish joylarini ochish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog’liq muhim ijtimoiy vazifalarni belgilab borish maqsadga muvofiq bo’ladi. Mehnat resurslarining ortib borishi tendensiyasi mavjud ekan, ijtimoiy vazifaning ustuvorligi yanada oshadi.

Bugungi kunda yoshlarda iqtisodiy tayyorgarlik, xo’jalik yurita olish, tejamkorlik singari xislatlar shakllanishi uchun yoshlarni maktab va maktabdan tashqari muassasalar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohasida haqiqiy iqtisodiy faoliyatga iloji boricha ertaroq va faol jalb etish uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

Hozir qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sanoatlashgan qayta ishlash, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish mollari ishlab chiqarish, sayyohlik xizmati va shu kabi boshqa sohalarda kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirishdagi keng imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak.

2015 yilga kelib yaratilgan yangi ish o’rinlarining 62%dan ko’prog’i qishloq joylarida tashkil etilgan bo’lsa-da, ularning aksariyati savdo va xizmat ko’rsatish sohasidadir. Ko’rinib turibdiki, murakkab vaziyat faqat son bilan ham bog’liq emas, balki qayta tashkil bo’layotgan ish o’rinlari tarkibi ham ishga yaroqli aholining talablariga mos kelmaydi. Buning sababi, ish o’rinlarining asosiy qismi xususiy tadbirkorlik hamda savdo-vositachilik xizmati doirasidaligidir. Faoliyatning bu turida yangi ish o’rinlarini yaratish bir tomondan ishsizlar sonining

²⁴ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд кийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorlikка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. // Халқ сўзи. 16 январь, 2016.

o'sishini bir muncha ushlab tursada, bevosita tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq ishchi o'rinlarini yaratishga e'tiborsizlik hududiy va mahalliy mehnat bozori tizimini rivojlantirish samaradorligiga imkon bermaydi. Ayni paytda bu muammo xududning iqtisodiy taraqqiyotiga ham salbiy tasir ko'rsatadi. Aholining ijtimoiy taraqqiyotida esa barcha sohalardagi rivojlanishni ta'minlashga erishmog'imiz kerak.

Eng muhimi, "Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi"²⁵.

Bizning fikrimizcha, ish bilan bandlikni oshirish masalalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari bilan bog'liq ekan, ushbu sohadagi mavjud muammolarni qisman oldini olish uchun qo'yidagi ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- eng avvalo, qishloq joylarida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma faoliyatini sifat jihatdan yaxshilash choralari ko'rish;
- nafaqat ijtimoiy infratuzilma, balki iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadidagi bozor infratuzilmasi faoliyatini ham kengaytirish chora-tadbirlarini joriy etish zarur. Keyingi yillarda bunga e'tiborning sustligidan iqtisodiy faoliyatdagi sub'ektlar mazkazga (shaharlarga) intilmoqdalar;
- kredit berish siyosatida e'tiborni ishlab chiqarish sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalariga chuqurroq qaratish zarur deb hisoblaymiz. Chunki ishlab chiqarishda yangi ish joylarini yaratish imkoniyatlari kengroqdir.

Bunday chora-tadbirlar ish bilan band etish masalalarini hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada kuchaytirish imkonini yaratadi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish joylarini ochish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik

²⁵ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд кийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorlikка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. // Халқ сўзи. 16 январь, 2016.

muammosini hal etish bilan bog'liq zarur ijtimoiy vazifani bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

II-BOB. RESPUBLIKADA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI BANDLIGINING HOLATI TAHLILI


2.1. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojining aholining farovonligiga ta'siri

Ma'lumki, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti bugungi kunda o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror yuksalishida, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi daromadlari ortib borishida muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish yo'lidan izchil olg'a siljish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi qabul qilingan.

Xususan, Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 17 yanvardagi majlisida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan 2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim vazifalari va ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, Respublika Markaziy banki hamda tijorat banklari tomonidan xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun kreditlar ajratish ko'lamini yanada kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



2.1.1-diagramma. Xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'zgarish dinamikasi

Eng avvalo, bank tizimi faoliyatiga daxldor bir qator yangi qonunlar qabul qilindi, kichik biznes sub'ektlarini kreditlashga oid tartiblar mazkur jarayonni yanada soddalashtirish va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi. Bugungi kunda tadbirkorlarga barcha masalalar yuzasidan tezkor ravishda zarur amaliy yordam ko'rsatib borilmoqda.

Ta'kidlab o'tish joizki, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar xalqaro moliya institutlari tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Shunga ko'ra, joriy yilning aprel oyida «Moody's» xalqaro reyting agentligi tomonidan beshinchi bor yurtimiz bank tizimiga munosib bo'lgan barqaror reyting bahosi berilgan edi. Shu yilning o'tgan oylarida kreditlashning tartiblari ancha soddalashtirilib, yillik foiz stavkalari esa maqbullashtirildi.

Ushbu ishlar samarasini joriy yilning oktabr oyida bank tizimining yana bir yuqori muvaffaqiyatga erishganligida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, Xalqaro moliya korporatsiyasi «Biznesni yuritish – 2015» (Doing business – 2015) hisobotida davlatlarning yangi reytingini e'lon qildi. Unga ko'ra, O'zbekiston ishbilarmonlik muhiti qulayligi bo'yicha dunyoning 189 dan ziyod davlatlari orasida 8 pog'ona ko'tarilib, 141-o'rinni egallagan. Kreditlash tizimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan


bir yo‘la 26 pog‘ona ko‘tarilib, 104-o‘ringa chiqdi. «Kredit almashinuvi indeksi» bo‘yicha esa (8 balli tizim bo‘yicha) 7 ballga baholandi. Bu Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a‘zo davlatlarga berilgan reyting ko‘rsatkichidan ancha yuqoridir. O‘z navbatida, bu mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitining yaratilishi borasida olib borilayotgan ishlarning ijobiy samara berayotganidan dalolat hamdir.

Bank tizimida so‘nggi yillarda kichik biznesni kreditlash hajmi keskin oshirildi, tadbirkorlik sub‘ektlariga xizmat ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy baza takomillashtirildi, xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va tarkibiy o‘zgartirish bo‘yicha aniq yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yilda 37 foizni, 2005 yilda 38,7 foizni, 2010 yilda 49 foizni, 2011 yilda 50,5 foizni, 2012 yilda 52 foizni hamda 2013 yilda 53 foizni tashkil qildi. Axborot-kommunikatsiya, bank, sug‘urta, lizing, sayyohlik-ekskursiya va boshqa zamonaviy yuqori texnologik va bozor iqtisodiyotiga mos xizmat turlari ildam sur‘atlar bilan rivojlanmoqda.

Chunki aynan mazkur sohaning ayrim turlari (masalan, konsalting) katta bo‘lmagan boshlang‘ich mablag‘ evaziga yuqori daromad olish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, dunyo iqtisodiyotida moddiy ishlab chiqarish sohasi stagnatsiya holatida bo‘lganda ham aynan xizmat ko‘rsatish sohasini bir maromda o‘sishini ko‘rish mumkin. Jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning 40 foizidan ortig‘i aynan servis sohasiga yo‘naltirilmoqda (asosan savdo, bank va sug‘urta xizmatlariga). Bugungi kunda servis sohasi yangi ish o‘rinlari yaratilishida yetakchi tarmoqqa aylanmoqda. Chunki aynan mazkur soha o‘zining yuqori daromadliligi, xizmatlar tannarxining yuqori emasligi bilan jozibador bo‘lib, ko‘plab tadbirkorlarimizni servis sohasi bilan shug‘ullanishga undamoqda.



2.1.2-diagramma. Respublika xududlarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi

Bugun mamlakatimizda ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati yuqoriligining asosiy mezonini bo'lib, eng avvalo, mazkur soha davlat tomonidan huquqiy tartibga solinganligidadir.

2006-2011 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini tezkor rivojlantirish hisobiga, avvalambor kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda 1,1 mln. ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi «2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida»gi 1754-sonli Qaroriga muvofiq, bugungi kunda respublika hududlarida, ayniqsa, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirish maqsadida bank tizimida ham keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada 2016 yilgacha mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 55 foizgacha oshishi ko'zda tutilgan.

2014 yil davomida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan 1 150 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish ko'zda tutilgan bo'lsa, joriy yilning 1 noyabr holatiga ushbu ko'rsatkich 1 070,3 mlrd. so'mni tashkil etdi yoki 2013 yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobardan ko'proq kredit mablag'lari ajratildi.

Bugungi davrda jahon iqtisodiyotida servis sohasining turizm yoʻnalishi tobora qudratli tarmoqqa aylanib bormoqda. Aynan mazkur soha iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari boʻlgan transport, aloqa, qurilish va qishloq xoʻjaligi sohalarining oʻsishiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda, bir soʻz bilan aytganda, turizm mamlakat taraqqiyotida katalizator vazifasini bajaradi.

Zamonaviy turizm sohasi mamlakatning daromadiga daromad qoʻshish bilan birgalikda chet ellik fuqarolar va jahon hamjamiyati oldida uning nufuzini yanada oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Maʼlumki, mamlakatlarning turistik salohiyatini oshirish ulardagi havo, avtomobil va temir yoʻl transporti sohalarining rivojlanish darajasi bilan, shuningdek, turistik industriya obʼektlarining (mehmonxona, oshxona va h.k.) mavjudligi bilan bevosita bogʻliqdir.

Jahon sayyohlik tashkilotining prognoz koʻrsatkichlariga muvofiq turizm sohasining oʻsish surʼatlari saqlanib qoladi. 2020 yilga borib turistik safarlar soni 2000 yilga nisbatan 2,2 barobarga oʻsishi kutilmoqda (698 mln. safardan 1 561 mlrd. safargacha). Eng muhimi, turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining 4,2 barobarga – 476 mlrd. dollardan 2 trln. dollargacha oʻsishi eʼtiborlidir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning ulkan turizm salohiyatini roʻyobga chiqarish, mazkur sohani rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bugun respublikamizda 11 ta xalqaro aeroport faoliyat koʻrsatayotganligi, milliy aviakompaniyamiz zamonaviy «Eyrbas» va «Boing» avialaynerlari bilan taʼminlanganligi, har kuni «Toshkent-Samarqand-Toshkent» yoʻnalishi boʻyicha yuqori tezlikda harakatlanadigan «Talgo» kompaniyasida ishlab chiqarilgan «Afrosiyob» poyezdining qatnayotganligi hamda ushbu loyihalarni moliyalashtirishda mamlakatimiz banklarining munosib hissasi borligi diqqatga sazovordir.



2.1.3-diagramma. Tijorat banklari tomonidan qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar (mlrd. so‘mda)

Shuningdek, mamlakatimizda sayyohlik infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida so‘nggi 5 yilda umumiy qiymati 3 mlrd. AQSh dollarlik investitsiyalar hisobidan uzunligi 2 600 kilometr bo‘lgan zamonaviy avtomobil yo‘llarining qurilganligi va rekonstruksiya ishlarining amalga oshirilib, yo‘lbo‘yi infratuzilma ob’ektlari barpo etilganligi hamda mamlakatimizning Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi turizmning xizmatlar sohasidagi ulushi yanada oshishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu o‘rinda aytish joizki, Toshkent viloyati Parkent tumanining Tyan-Shan tog‘ tizimiga kiruvchi Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi hududida joylashgan «Kumushkon» sog‘lomlashtirish markazining biznes rejasi bank tomonidan ma’qullangach, ushbu loyihani amalga oshirish maqsadida 1 mlrd. so‘m miqdorida kredit ajratilgan. Ushbu kredit mablag‘lari evaziga tashabbuskor tomonidan markazdagi mavjud 3-qavatli mehmonxona binosi hamda sport zalini ta’mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda hamda qo‘shimcha 2 ta zamonaviy dam olish uyi, konferensiyalar zali qurilmoqda. Mehmonxonani ta’mirlash orqali 12 ta oilaviy yotoqxona tashkil etilish rejalashtirilgan. Tashabbuskor tomonidan kelgusida markazning sport zalida sportning barcha turlari bo‘yicha milliy terma jamoalarimizning yig‘inlarini o‘tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida zamonaviy sport anjomlari o‘rnatilayotganligi diqqatga sazovordir.

Bundan tashqari, oxirgi yillarda turizm va sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizga xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etish, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan 2013-2015 yillarda Xorazm, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish, qishloq aholisining zamonaviy yuqori texnologik va bozor xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, buning asosida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlari oshirilishini ta'minlash maqsadida 2013 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1957-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar muntazam ravishda hukumat darajasida muhokama qilinib, bank tizimiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur qarorning ijrosi doirasida 2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlariga 406,4 mlrd. so'm miqdorida, shu jumladan, 2014 yilda 90,8 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish ko'zda tutilgan.

Joriy yilning 1 noyabr holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 140,5 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi, ya'ni 2014 yilning 10 oylik rejasi 178,5 foizga bajarildi.

Mamlakatimizda servis sohasining rivojlanishi xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada oshirishga, ularning siyosiy-ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki tobora oshib bormoqda.

Ma'lumki, mamlakatimizda so'nggi yillarda ayollar tadbirkorligi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun joriy yilning 10 oyi davomida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 barobar ko'p, ya'ni 816,8 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Natijada xotin-qizlarning turli ro'zg'or yumushlaridan xoli bo'lishlari (kir yuvish, ovqat tayyorlash, uyni saromjon qilish va h.k.) iqtisodiyotda servis sohasining yangi turlariga bo'lgan talabni yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklarining kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyati faqatgina kredit ajratish bilan cheklanmasdan, keng miqyosda targ'ibot-tashviqot ishlari ham olib borilmoqda.

Xususan, kichik biznes sub'ektlariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining barcha filiallarida «Tadbirkorlar xonasi» tashkil etilgan bo'lib, ushbu xonalarda malakali mutaxassislar tomonidan kreditlar ajratish, bank xizmatlari ko'rsatish yuzasidan zarur maslahatlar berib borilmoqda. Shuningdek, filiallar va mini-banklarda tashkil etilgan «Tadbirkorlar burchagi» orqali respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, taklif etilayotgan yangi bank xizmatlari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib borilishi yo'lga qo'yildi. Banklarning muntazam yangilanib boradigan veb-sayt va portallari orqali axborot xizmati ko'rsatish tizimi kengaytirildi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qonun hujjatlari, ularga muvofiq yaratilgan imtiyozlar, soha sub'ektlari uchun kreditlar ajratish shart-sharoitlari yuzasidan joylarda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy uchrashuv va seminarlar tashkil etilmoqda. Bu kabi tadbirlar respublikaning barcha hududlarida, jumladan, Mo'ynoq, Shumanay, Qo'rg'ontepa, Baxmal, Mingbuloq, Chiroqchi, Dehqonobod,

Tomdi, Qo'shrabot, Sho'rchi, Boysun, Bo'ka singari chekka hududlarida ham tashkil etildi.

Uchrashuvlarda bank tizimi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Savdo-sanoat palatasi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, «Tadbirkor ayol» uyushmasi va boshqa tashkilotlarning rahbar va mas'ul xodimlari, ta'lim muassasalari bitiruvchilari, ishbilarmon doiralar vakillari ishtirok etib kelmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va jadal rivojlantirish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning bandligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezidentimizning farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari bilan joriy qilingan qulay shart-sharoit va imtiyozlar to'g'risida batafsil tushuntirishlar berilmoqda.

Shu bilan birga, bank tizimida 2013-2016 yillarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga kiritilgan loyihalarni o'z vaqtida moliyalashtirish yuzasidan barcha tegishli choralar ko'rilmoqda.

Xususan, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan loyihalarning belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari va tegishli tijorat banklari tomonidan viloyat va tuman (shahar) hokimliklari, iqtisodiyot bosh boshqarmalari va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda barcha zaruriy choralar ko'rilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish bank muassasalarining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Qolaversa, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada yaxshilash va yangi turlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar davom ettiriladi va bu, albatta, mamlakatimizda xizmatlar sohasining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

2.2. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi ko'rsatkichlari tahlili

Xizmat ko'rsatish sohasining mehnat resurslari – jamiyatda faoliyat yuritayotgan mehnat resurslarining bir qismidir. Iqtisodiyotning rivojlanib borishi asnosida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan xizmatchilar soni ko'payib boradi. Bu tabiiy hol. Unda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning asosiy qismi mutaxassislardir. Ularning yarmidan ko'prog'i oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega. Xizmat ko'rsatish sohasi va moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi sohada o'rtasidagi farqlardan biri ana shunda.

Hozirgi paytda milliy iqtisodiyotda band bo'lgan xodimlar tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida band bo'lgan aholining hissasi yildan-yilga ortib bormoqda (2.2.1-jadval).

2015 yilda xizmat ko'rsatish sohasiga oid aksariyat tarmoqlarda band bo'lgan aholining iqtisodiyotda jami band bo'lganlar tarkibidagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega: savdo va umumiy ovqatlanishda — 3,0 foizga, UJKX va maishiy xizmat ko'rsatishda — 0,3 foizga, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda — 0,01 foizga oshgan.

2015 yilda UJKX va aholiga noishlab chiqarish turidagi maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida — 481.5 ming kishi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda — 925.6 ming kishi, maorif, madaniyat, sport, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish tarmog'i — 1645.8 ming kishi, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti va tayyorlov tarmog'ida — 1481,0 ming kishi²⁶ faoliyat ko'rsatishgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan aholi sonining o'sishga, bu soha xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi bilan bog'liq.

²⁶ Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, 2016, 34 бет.

2.2.1-jadval

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida band bo'lgan aholining tarmoqlar bo'yicha tarkibi²⁷ (jami band aholi soniga nisbatan, foizda)

t/r	Tarmoqlar	2012y.	2013y.	2014y	2015y
1	Sanoat	13,0	12,9	12,8	12,8
2	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	26,7	27,2	27,6	27,7
3	Qurilish	9,3	9,3	9,4	9,6
4	Transport va aloqa	5,2	5,3	5,3	5,4
5	Savdo va umumiy ovqatlanish	10,9	11,0	11,2	11,3
6	UJKX va maishiy xizmat ko'rsatish	3,5	3,6	3,6	3,4
7	Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot	7,6	7,4	7,2	7,1
8	Maorif, madaniyat, sport va fan	13,4	13,1	12,8	12,6
9	Moliya, kredit va sug'urta	0,5	0,5	0,5	0,5
10	Boshqalar	9,9	9,7	9,6	9,3

Xizmat tarmoqlariga jalb etilganlar — yangi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan mehnatga jalb qilinadi.

“Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda aralash iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi tez va jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda o'ta rivojlangan davlatlarda ushbu sohada 50 %dan ko'proq mehnat resurslari band ...”. AQShda xizmatlar sohasi bashoratlarga ko'ra “... yaqin o'n yil ichida yangi ish joylarining 90 %ni ta'minlashi lozim”²⁸.

²⁷ Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, 2016, 35 бет.

²⁸ Файзиёв Э.С. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий мазмуни ва ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини ривожлантиришда туган ўрни. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.(монография) –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008, 18 бет

²⁸ И.А.Каримов “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни биртараф этишининг

O'zbekiston Respublika Prezidenti I.A.Karimov "Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni birtaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida: "Bizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizda ... xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qanday katta ahamiyat berilayotganini yana bir bor takrorlashning hojati yo'q"²⁹, deb ta'kidlashining zahirida aholi bandligini ta'minlashda mazkur sohaning roli yotadi, albatta.

Ma'lumki, O'zbekistonda aholining o'sish sur'ati aksariyat davlatlarga nisbatan yuqori. Aholining ish bilan bandligi masalasi doimo eng muhim va o'tkir masalalardan biri bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib turibdi. Bu muammoni hal etish maqsadida davlat erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish, turli imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etish yo'li bilan xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda iqtisodiyotni industriyalashtirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bunday intilishlar o'z samarasini bermoqda, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida yangi korxonalar paydo bo'lishiga, mavjudlarining esa yanada rivojlanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi sharoitda xizmatlarga bo'lgan talab tobora oshmoqda, jumladan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lganlariga. Ijtimoiy turdagi xizmatlarga talablarning o'sishi xizmat ko'rsatish sohasida mehnat resurslarini jamlashni talab qiladi. Aholining yuqori sifatli meditsina xizmatiga bo'lgan talabini qondirishga, sog'ligini himoya qilishga, bemorlarni davolash va kasalliklarning oldini olishga sog'liqni saqlash xodimlari mas'uldirlar.

Ijtimoiy mehnatning mazmuni va xarakterining o'zgarishi, aholi mashg'ul bo'lgan kasblar tarkibidagi siljishlar sababli milliy iqtisodiyotning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabining o'sishi o'z navbatida maxsus o'quv yurtlarining tashkil etilishini, amaldagilarining kengayishini talab qiladi. Bu bilan ta'lim sohasi – aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi. Fanning yanada rivojlanishini, unda aholi bandligini o'stiradi.

йўллари ва чоралари". Т.: "Ўзбекистон" 2009 .

Aholining intellektual, ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga madaniyat va san'at sohalari xodimlari da'vat qilingan. Ijtimoiy sohada ilm va fan yutuqlarini qo'llash – xodimlarni ijodiy ishlar bilan bog'liq bo'lmagan, yordamchi ishlardan ozod etadi. Ayni paytda mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ijtimoiy soha xodimlarining mehnati sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy sohada, xususan, sog'liqni saqlashda fan texnika taraqqiyoti ta'sirida medik mutaxassisligi bo'lmagan xodimlar ham faoliyat yuritishmoqdalar: injenerlar, biologlar hamda meditsina uskunalariga qaraydigan ishchilar.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda mehnat resurslari o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- bu sohada oliy va o'rta maxsus mutaxssislarning bo'lishligi;
- xodimlarining demografik tuzilishi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarinikidan – xodimlar tarkibida erkak mutaxassislarga nisbatan ayol mutaxassislarning ko'proq bo'lishligi, sohada qari kishilarning ko'proq ishlashishi bilan farq qiladi;
- sohada qo'shimcha mehnat kuchining ishlatilishiga ehtiyoj bo'lishligi sababli unda o'rindosh ishlaydigan xodimlarning ko'p bo'lishligi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi soha xodimlarining mehnati jamiyatdagi jami mehnatning bir qismidir. U ijtimoiy foydalidir.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi asosiy omil – mehnatdir. Ijtimoiy soha sermehnat talab qilinadigan sohadir. Shu sababli ham bundagi xarajatlar tarkibiga ish haqining hissasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarinikiga nisbatan ancha yuqoridir.

Sohada moddiy va mehnat resurslarining nisbati fond bilan qurollanish darajasini aks ettiradi. Noishlab chiqarish fondlari sohada xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy soha ob'ektlarining ishga tushirilishi xizmat ko'rsatish sharoitini yaxshilaydi va xizmatni iste'mol qiluvchilar uchun qo'layliklar tug'diradi. Bunday ob'ektlarni ishga tushirish katta moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida mehnatning natijalari bevosita va oxirgi natijalar ko'rinishida bo'ladi. Mehnatning oxirgi (pirovard) natijasi soha xodimlari faoliyatining ta'siri ostida shakllanadigan shaxsning xislatlarida yoki ijtimoiy hayot xususiyatlarda aks etadi. Meditsina xodimlari mehnatining yakuniy natijasi bemorning sog'ligida, o'qituvchi mehnatining yakuniy natijasi o'quvchi bilimida namoyon bo'ladi. Demak, ijtimoiy soha ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadi.

Pirovard natijaga erishish har bir odamning yoki jamiyatning aniq ehtiyoji qondirilganidan darak beradi. Sohadagi mehnat faoliyati aynan shunga qaratilgandir.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari xodimlarining mehnati aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lsada, ayrim hollarda, mehnatning yakuniy natijalari xodimlar harakati bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, odam sog'ligining holati nafaqat unga xizmat ko'rsatadigan meditsina xodimlari faoliyati bilan, ayni paytda, genitek omillar, mehnat sharoiti va yashash tarzi bilan bog'liqdir. O'quvchining bilimi esa nafaqat o'qituvchi mehnatidan, shuningdek, boshqa shart-sharoitlardan, jumladan, o'quvchining faolligidan bog'liqdir. Demak, ijtimoiy soha xodimlari pirovard natijalarga erishishga bevosita hissa qo'shsalarda, bu natijani to'liq shakllantira olmaydi. Yakuniy natijalarga tabiiy sharoit va boshqa ob'ektiv omillar hamda odamlarning faolligi ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari xodimlarining mehnati bevosita natijalarga erishishga imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Bu imkoniyat va sharoitlar o'ziga yarasha mehnat natijalaridir. Masalan, medik faoliyatining bevosita natijasi bemorni operatsiya qilishda yoki uni emlashda ko'rinadi.

Pirovard natijaning bevosita natijadan farqi shundaki, u xizmatni iste'mol qiluvchi shaxsni emas, balkim bajarilgan ishning foydaliligini tavsiflaydi. Bunday holatda pirovard va bevosita mehnat natijalari bir- biridan farq qilmaydigandek tuyiladi. Ammo, bunday emas. Sohada mehnat natijasi buyum ko'rinishida emas, balkim foydali samara ko'rinishida bo'ladi.

Sifat va miqdor nuqtai nazaridan foydali samara – mehnat sarfidan farq qiladi. Bu quyidagi misolda ko‘rinadi. Spektaklni tayyorlash ijodiy jamoadan bir necha oy mobaynida katta mehnat sarflashni talab qiladi. Bu mehnatning foydali samarasi tomoshabinlarga spektakl namoyish etilganidan so‘nggina yuzaga keladi. Sarflangan mehnatga baho berishda, albatta, sahnalashtirilgan asar ishtirokchilari sonini emas, balkim tomoshabinlar soni e‘tiborga olinadi. Iqtidorli va yaxshi tashkil qilingan mehnat jamoasi, o‘rta miyona jamoaga nisbatan, yuqori darajadagi foydali samaraga erishishi mumkin.

Demak, sarflangan mehnat va foydali samara bir xil narsa emas ekan. Birinchisi ishchi kuchining amal qilishini aks ettirsa, ikkinchisi amalga oshirilgan harakatlarning iste‘molchilarga ta‘sirini aks ettiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy soha xodimlari mehnat faoliyati foydali samara shaklida bevosita mehnat natijalarini yaratadi. Yetarli darajada sharoit bo‘lganda bevosita natijalar talab darajasidagi pirovard natijalarni beradi.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida mehnat natijalarini baholashda, mehnat samarasini tavsiflaydigan natural ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Masalan, oliy o‘quv yurtlarini nechta yosh mutaxassislar tugatdi, spektakl yoki konsertda bo‘lgan tamoshabinlar soni va hokazo. Ayrim hollarda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish soha xodimining mehnati natijasi bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘rsatkichda tavsiflanishi mumkin. Masalan, davolash poliklinikasi ishining bevosita natijalari bir tomondan unga murojaat qilgan bemorlar soni bilan, ikkinchi tomondan esa davolash muolajalarining o‘tkazilishi soniga qarab baholanadi. Xuddi shu kabi o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan o‘quvchi soni hamda ularni bitirgan yosh mutaxassislar soni bilan faoliyati baholanadi. Albatta, bu ko‘rsatkichlar orasida davolangan bemorlar, o‘quv yurtlarini bitirgan yosh mutaxassislar soni pirovard natijaga erishilganini tavsiflaydi va ular muhimdir.

Natural ko‘rsatkichlarga oddiylik va ko‘rgazmalilik (naglyadnosit) xosdir. Ma’lum davr oralig‘ida, turli hududlarda yoki mamlakatlarda erishilgan natijalarni baholashda natural ko‘rsatkichlar ancha qo‘laydir.

Ammo bu ko‘rsatkichlarda ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, barcha

natural ko'rsatkichlarni bir biri bilan taqqoslash mumkin emas. Shu sababli amaliyotda nisbiy va mehnat natijalarini o'lchashda eng universal bo'lgan pul ko'rinishidagi ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasining moddiy-texnika bazasi – bu jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish va ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitdir. Sohada moddiy va mehnat resurslarining nisbati fond bilan qurollanish darajasini aks ettiradi.

Noishlab chiqarish fondlari sohada xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy soha ob'ektlarining ishga tushirilishi xizmat ko'rsatish sharoitini yaxshilaydi va xizmatni iste'mol qiluvchilar uchun qo'layliklar tug'diradi. Bunday ob'ektlarni ishga tushirish katta moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi.

2.3. Xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va ushbu sohani rivojlantirish yo'nalishlari

Iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni avtomatik tarzda boshqarish imkoniyatining yo'qligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning bevosita aralashuvini talab etadi. Ayniqsa, davlat aralashuvi bo'lmasa, foydani ijtimoiy jihatdan teng taqsimlanishida, ijtimoiy mehnat qilish huquqi kafolatlanishida, atrof muhitni muhofaza qilinishi va aholining himoyalangan tabaqasini qo'llab-quvvatlanishida qator muammolar yuzaga keladi.

Alohida olingan tarmoq sifatida **xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmatlar sohasini tartibga solishda** huquqiy asoslarni yaratish, soha sub'ektlarining qonuniy faoliyat tartibi, davlat ishtiroki asosida xizmatlar sohasini barqaror rivojlanishi hamda davlat tomonidan xizmatlar sohasi sub'ektlarini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy kafolatini ta'minlash, davlat tomonidan xizmat ko'rsatish sub'ektlarida raqobatchilikni himoyalash, xizmat ko'rsatishda pul - kredit siyosatini samarali yuritish, shuningdek, amortizatsiya va investitsiya siyosati muhim o'rin egallaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasining holati, xususan uni tartibga solinishida samarali ishlar amalga oshirilganligi bir qator natijalarni bermoqda. Bu borada mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlanganidek, 2015 yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgani, jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilayotganligi³⁰ alohida e'tiborga molikdir. Kechagina e'tibordan chetda bo'lgan soha shu qisqa davrda bunday ko'rsatkichlarga erishilganligi mamlakatimizda juda katta tashkiliy tadbirlarni amalga oshirilayotganligi, davlat tomonidan tartibga solinganligidan dalolat beradi.

Davlatimiz xizmatlar sohasiga juda ko'p kuch va mablag' safarbar qilmoqda. Bugungi kunda bank, sug'urta, lizing, konsalting va boshqa turdagi bozor xizmatlari barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoqda, ularning barchasi asosan xususiy sektor va kichik biznes rivojiga xizmat qilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida 80 ming 400 ta kichik biznes sub'ekti faoliyat yuritmoqda va bu xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari umumiy sonining 80 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish dasturi doirasida so'nggi uch yilda 22 ming 800 dan ortiq loyiha amalga oshirildi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi 1,6 barobar, qishloqda bir kishiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 1,5 barobar oshdi³¹. Xizmat ko'rsatish sohasida erishilgan muhim yutuqlardan biri – unda qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratilganligidir.

Ta'kidlash joizki, xizmat ko'rsatish sohasi davlat tomonidan tartibga solinishi va ushbu sohaga katta e'tibor qaratilgani bois, mazkur soha qator yillardan buyon yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Bu borada mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar, ularga berilgan imkoniyat va

³⁰ Каримов И.А. “Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир”. // Халқ сўзи, 2016 йил 16 январь.

³¹ Каримов И.А. “Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир”. // Халқ сўзи, 2016 йил 16 январь.

imtiyozlar kelajakda ushbu sohaning yanada jadal rivojlanishini ta'minlashi bilan birga, xizmatlar sifatining oshishiga, uning xalqaro andozalar darajasidagi holatining shakllanishiga olib kelishi muqarrar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi va yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalaridan biri – xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishdan iboratdir. Chunki mazkur sohaga alohida e'tiborning mavjudligi sababli so'nggi yillar davomida bir qancha Davlat dasturlari ishlab chiqilib, ularning bajarilishi to'liq nazorat qilindi. Natijada keyingi yillarda xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'ati jadallik bilan davom ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi PQ-1754-sonli Qarorida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi maqsadli parametrlarining belgilangan muddatlarda sifatli hamda to'liq hajmda amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralarining, korxonalar va tashkilotlarning rahbarlari zimmasiga yuklatilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur qaror va boshqa tegishli me'yori hujjatlar asosida xizmat ko'rsatish sohasini shaharlar, tumanlar va xizmat turlari bo'yicha rivojlantirishning hududiy dasturlari hamda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning hududiy dasturlarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar komplekslari ishlab chiqilgan bo'lib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mazkur dasturlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bilan bandlik muammosini hal qilish "ayniqsa, xotin-qizlar, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash, oilalarning daromadini sezilarli darajada ko'paytirish, butun mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bu birinchidan, aholini ish bilan ta'minlash orqali oilalarning aniq daromadlarini ko'paytirishga xizmat qilsa, ikkinchidan, mamlakatimiz bozorining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish orqali aholining yashash darajasi va sifatining oshishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasi eng muhim manba va omil hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha

yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda 2015 yilda pullik xizmatlar hajmi 10,8 foizga o'sdi³².

Har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining, avvalambor, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun tashkil etilayotgan ish o'rinlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i aynan mazkur soha hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu borada xizmatlar tarkibi ham tubdan o'zgarib borayotganini ta'kidlash joiz.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning hududiy dasturlari va ularni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlarda xizmat ko'rsatish sohasi tarkibini yanada takomillashtirish, aholi talabgor bo'lgan zamonaviy xizmat turlari bilan bozorni jadal rivojlantirish va to'ldirishga, shahar va qishloq aholi punktlari hududlarining qurilishini rejalashtirishda tasdiqlangan me'yorlardan kelib chiqqan holda mintaqalar aholisiga turli ijtimoiy va kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, birinchi navbatda qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasiga oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari hamda ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ichidan yoshlarni keng jalb etishga alohida e'tibor berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmatlar sohasi davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida mamlakatda ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi agar 2000 yilda 30 foizni, 2005 yilda 38,3 foizni, 2006 yilda 39,5 foizni, 2011 yilda 50,5 foizni va 2015 yilda 54,5 foizni tashkil qilgan bo'lsada, kelgusida mamlakatimizni bu ko'rsatkichni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarib, 60-80 foizgacha yetkazish hamda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 70 foizini aynan shu sohada faoliyat ko'rsatishiga erishish yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiyy maqsadidir.

Bugungi kunda respublikamiz aholisining iste'mol xarajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi bor-yo'g'i 15,4 foizni tashkil qilsa, bu ko'rsatkich rivojlangan

³² Ўзбекистон республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти маълумотлари асосида. Stat.uz

mamlakatlarda 50-60 foizni tashkil etgani bois, ushbu sohaga e'tibor qaratish talab etiladi[1]. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmatlar sohasini rivojlantirish oilalarni maishiy texnika, kompyuter va shaxsiy avtotransport turlari bilan ta'minlash darajasining oshishiga hamda ularga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'payishtirishga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasini rag'batlantirilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti-ning hal qiluvchi strategik omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari mamlakat bo'yicha iqtisodiy faol korxonalarining asosiy qismini tashkil etadi. Bunda aynan kichik oilaviy korxonalar katta muvaffaqiyat bilan ajralib turadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday vaziyat O'zbekiston uchun an'anaviy hisoblanadi va buni hunarmandchilikka borib taqaluvchi moddiy xizmatlar yaratuvchi tadbirkorlikning tarixiy shakllarida kuzatish mumkin.

Respublikamizda xizmatlar sohasi tadbirkorlik sub'ektlari jahon standartlari talablariga muvofiq o'zining mahaliy xarakteriga ham ega. Ushbu sohada yaratilayotgan moddiy xizmatlarning asosiy qismi, qo'l mehnati yoki mehnat jarayonining biroz mexanizatsiyalashuvi yordamida yaratilmoqda. Keyingi yillarda mehnat bozorida yuqori texnologiyalar bazasida turli xil axborot xizmatlarining paydo bo'lishi ham bu boradagi ishlarni yengillashtirishga sabab bo'lmoqda.

Xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasining qulayligi va afzalligi, uni tashkil etishning osonligi va ixchamligi, ishchi kuchi va mehnat resurslarining oiladan yetishib chiqishi, aniq mijozlar talabi uchun xizmat ko'rsatishi, mahaliy xom ashyolardan keng foydalanishi hamda xizmatlarni sotishi mahalliy bozorlarda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi.

Olib borilayotgan tadqiqotlarimiz natijasi bo'yicha mamlakatimizda ishlab chiqilgan davlat dasturi talablaridan kelib chiqib xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmatlar sohasini rivojlantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

- xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faolligini yanada kuchaytirish uchun qullay shart-sharoit yaratish, xususan, bu boradagi rasmiyatchilik to'siqlarini bartaraf etishda davom etish;

- xizmatlar va servis sohasida band bo'lgan aholi sonini muntazam oshirib borish;

- qishloq joylarda xizmat va servis sohasini jadal rivojlantirish, xususan, qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar, birinchi navbatda, komunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, suvdan foydalanish, veterinariya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va mashina traktor parklari sohasidagi xizmatlar hajmi va turlarini yanada oshirib borish;

- mamlakatimizda an'anaviy xizmatlar turlarini rivojlantirish, ayrim bugungi kun talabiga javob beradigan, ammo unitilib ketilgan xizmat turlarini izlab topish va ularni tiklash.

- xizmatlarning yangi istiqbolli turlarini, xususan, yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va boshqalarini jadal rivojlantirish;

- mamlakatimiz xizmatlar eksportini ko'paytirish uchun ushbu soha korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlar darajasi va sifatini oshirishga erishish;

- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- zamon talablaridan kelib chiqqan holda qishloq va shaharlarda yuqori texnologik xizmatlarning ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish borasida tegishli choralarni ko'rish.

Shuningdek, xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmatlar sohasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash asosida, mazkur sohani tartibga solishda davlatning bosh islohotchi sifatida rolini oshirishda qo'yidagi imkoniyatlardan foydalanish taklif etiladi:

- xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasida davlatning buyurtmachi sifatida namoyon bo'lishi. *(mamlakatimizda kichik biznes va xususiy*

tadbirkorlik asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga davlat buyurtmachi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa, mazkur sohada katta moliyaviy mablag'lar talab etmasdan xizmat ko'rsatish sub'ektlari barpo etish va yangi ish joylari yaratishga olib keladi.)

- davlat soliqlar bo'yicha beriladigan imtiyoz va yengilliklar orqali xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmatlar sohasi sub'ektlari rivojlanishi imkoniyatlarini ochib berishi. *(Bunda, imtiyoz va yengilliklar birinchi holda xizmatlar sohasi korxonalari xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi holda – iste'molchilar xarajatlarini kamaytirish va talabni rag'batlantirishga qaratiladi.)*

- xizmatlar sohasida subsidiyalar. *(ta'kidlash joizki, subsidiyalar odatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi kabi aniq natijalarga bog'langan bo'lib, o'ta zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga imkon yaratadi.)*

- xizmatlar sohasida davlat grantlari. *(asosan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, innovatsion korxonalarining xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga imkoniyatlar ochib beradi.)*

- xizmat ko'rsatishda davlat bosh islohotchi sifatida axborot – kommunikatsiya texnologiyalari hissasini yoritib berishi. *(Ma'lumki, axborot ta'minoti – deyarli barcha mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi (kichik va o'rta biznes)ga nisbatan arzon konsalting xizmatlari taqdim etuvchi infratuzilma (tashkilotlar, axborot resurslari v.b.) mavjud. Bu borada mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yangi yo'nalishlarda rivojlantirish talab etiladi.)*

- xizmat ko'rsatishda davlat tadbirkorligini xususiy tadbirkorlik bilan uyg'unlashtirish. *(bu tadbirkorlikning xususiy ko'rinishi bo'lib, davlat sektori chegarasida amalga oshiriladi va davlat ulushi yuqori korxonalarni xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirkorlikni rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikka raqobatchi sifatida yangi imkoniyatlar ochib beradi. Bunda, Davlat mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Davlat tadbirkorligi, ayniqsa kam rentabelli, an'anaviy tarzda xususiy kapitalda qiziqish uyqotmaydigan xizmat*

ko'rsatish sohalarini qayta tiklanishi uchun sharoit yaratuvchi tarmoqlarda muhim ahamiyat kasb etadi.)

- davlatni xizmat ko'rsatish sohasidagi narx shakllanishini me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solishi. *(Davlat narx siyosatidan foydalangan holda, xizmat ko'rsatishda talab va taklifga ta'sir ko'rsatadi, daromadni va resurslarni qayta taqsimlanishini boshqaradi, shuningdek monopoliya va inflyatsiyaga qarshi kurash imkoniyatlarini yaratadi. Davlat narx siyosatini avvalambor xizmat ko'rsatish sohasida narx barqarorligini ta'minlash maqsadida olib boradi.)*

- davlat tomonidan xizmat ko'rsatish sohasi infratuzilmasini rivojlantirishga yangi imkoniyat yuzaga kelishi. *(Bunda, davlat bosh islohotchi sifatida xizmat ko'rsatish sohasi infratuzilmalarini yangi turlarini shakllanishi, ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishiga, huquqiy me'yoriy asoslarni yaratilishiga imkon yaratadi.)*

Mamlakatimizda yuqorida qayd etilgan islohotlar amalga oshirilishi iqtisodiyotni mustahkamlash va yanada rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashda xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko'rsatish sohasi o'rni ortib borishini ta'minlaydi. Eng muhimi, yangi xizmat turlariga ehtiyoj ortishi natijasida zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari bunyod etilishi hisobiga aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi imkoniyati kengayadi.

III-BOB. XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

3.1. Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish muammolari

Aholining bandlik darajasi hamda mehnat bozoridagi barqarorlik inson manfaatlari yo'lida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarni baholash mezonlaridan hisoblanib, ayni masala hamon kuzatilayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida yanada dolzarblilik kasb etmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lum qilishicha, dunyo oldida har yili birinchi marta mehnat bozoriga kirayotgan 40 million kishining va mavjud 200 million ishsizlarning bandligini ta'minlash uchun yaqin o'n yillikda 600 million ish o'rinlari yaratishdek murakkab sinov turibdi.

O'zbekistonda aholining bandligini to'liq ta'minlash va buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Mazkur sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor samarasini respublikamizda joriy yilning birinchi choragida 141 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgani misolida ham ko'rish mumkin. E'tiborlisi, bandligi ta'minlangan fuqarolarning salmoqli qismi qishloq joylarda yashovchi aholi hissasiga to'g'ri keladi. Binobarin, bir insonning layoqati va qiziqishiga ko'ra doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi nafaqat o'zi hamda oilasi, balki jamiyat uchun ham ahamiyatlidir.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar aholining 62 foizini tashkil qiladi. Har yili mehnat resurslari o'rtacha ikki foizga oshib borayotganini nazarda tutsak, aholi bandligini to'liq ta'minlash doimiy aktual masala ekani ko'rinadi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida O'zbekiston mehnat bozorining huquqiy va institutsional infratuzilmasi yaratildi. Mehnatni tatbiq qilish sohasi va imkoniyatlari, o'zini o'zi ish bilan ta'minlash ko'lamlari kengaydi. Mehnat faoliyatining shakllari va turlari xilma-xil ko'rinishga ega bo'ldi, mulkchilik va tarmoq shakllari bo'yicha ishlovchilar tarkibi o'zgardi, yangi, odamlar uchun yanada qulay bandlik shakllari paydo bo'ldi. Ilgari norasmiy faoliyat yuritgan

muayyan mehnat turlari (kasanachilik, hunarmandchilik, oilaviy tadbirkorlik) qonuniylashtirildi. Yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga kechayotgan barqaror iqtisodiy o'sish an'anasi yurtimiz aholisining bandlik darajasi ko'tarilishi uchun ob'ektiv shart-sharoitlar yaratilishi va rivojlantirilishini ta'minladi.

So'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotning har yili eng kamida sakkiz foizga o'sish sur'atlarida bandlik darajasining oshishi o'rtacha 2,5 foizni ko'rsatmoqda. Bu barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ega mamlakatlardagi mavjud an'analarga mos keladi.

Yurtimizda ish o'rinlarini yaratish va aholining bandligini ta'minlash borasidagi barqarorlik, samaradorlik omillarini tahlil qilsak, avvalo, xususiy tadbirkorlik rivojining jadallashuvi, qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilgani, kichik korxona va mikrofirmalar soni ortishi har yili minglab kishilarga turmush farovonligini oshirish imkoniyatini berayotganida o'z ifodasini topmoqda. Xususan, o'tgan yili ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar natijasida 370,5 ming ish o'рни yaratildi. Shuningdek, Investitsiya, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy va sanoatni rivojlantirish hududiy dasturlari izchil amalga oshirilishi, yakka tartibdagi tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, transport-kommunikatsiya sohalarining jadal sur'atda ravnaq topishi aholi bandligini ta'minlashda salmoqli o'rin tutmoqda. Kasanachilikni, oilaviy tadbirkorlikni, milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga berilayotgan alohida e'tibor ham minglab oilalarning ro'zg'ori butligini ta'minlayotir. Ayniqsa, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari kasanachilik va milliy hunarmandchilik markazlariga aylangan.

Bundan tashqari ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining safi kengayib borayotgani, aholining shaxsiy yordamchi uchastkalarda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishi uchun barcha qulayliklar yaratilgani, vaqtincha faoliyat yuritmayotgan va bankrot deb topilgan korxonalarning moliyaviy sog'lomlashtirilishi ishsizlik darajasi mo'tadilligini saqlashga xizmat qilmoqda.

Quvonarlisi, bandlik va daromadlar o'sishi natijasida yurtimiz aholisining iqtisodiy faolligi kuchaydi, pirovardida mehnat bozorining asosiy indikatorlari barqarorligiga erishilmoqda. Bandlik tizimida ijobiy siljish va an'analar ko'zga tashlanmoqda. Chunonchi, nodavlat iqtisodiy sektorda ish bilan band kishilar ulushi 2000 yildagi 58 foizdan 2015 yilga kelib 82 foizga o'sdi. Agar bundan 15 yil oldin ish bilan ta'minlanganlarning 34 foizi qishloq xo'jaligida mehnat qilgan bo'lsa, bugunga kelib xizmat ko'rsatish, sanoat va qurilish-pudrat ishlarida bandlik ko'rsatkichi ortib borayotir.

O'zbekiston — ulkan mehnat salohiyatiga ega mamlakat. Fuqarolarning mehnat qilish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar aholining ehtiyojmand qatlam vakillari bandligini izchil ta'minlash, ayni maqsadda kvotalangan ish o'rinlariga nogironlarni, ko'p bolali ota-onalar, ayollar, jazoni o'tash joyidan ozod qilingan shaxslarni jalb etishni ham qamrab olgan. Shu bilan birga yoshlarni, jumladan, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklarga ishsizlarni "usta-shogird" usuli bilan kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, ish kuchiga talab va taklifni o'zaro muvofiqlashtirish borasida e'tirofqa loyiq natijalar qo'lga kiritilmoqda. Bandlik sohasidagi bu muvaffaqiyatlar odamlarning turmush darajasini tobora yaxshilash yo'lidagi tizimli islohotlar bilan uzviy bog'liq.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat fuqarolarni ishsizlikdan muhofaza qilish choralari kuchaytirilganida, oilalar farovonligida, jamiyatdagi barqarorlik hamda manfaatlar tengligida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda. Zero, bugun butun dunyoda katta qiziqish uyg'otayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" har bir insonning xotirjam, baxtli hayot kechirishini ta'minlamoqda.

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanib, iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – kichik biznes va

xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: "aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish ... yaqin istiqbolda mamlakatimizni muvaffaqiyatli va barqaror rivojlantirishning alohida ustivor yo'nalishi va hech mubolag'asiz eng muhim shartidir", - deb ta'kidlab o'tishlari mazkur vazifaning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko'paytirishda hamda yangi ish o'rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi. Kichik biznesda aholi bandligi boshqa iqtisodiy faoliyat ko'rinishlaridagi bandlik kabi bandlikning ijtimoiy shakli sifatida tan olinmoqda. Aynan kichik biznesda aholi bandligini oshirish bugungi kunda mamlakatimizda muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblangan – ishsizlik muammosini hal etish imkonini bermiqda.

Jumladan, respublikamizda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda 2014 yilda 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes sub'ektlari tashkil etildi yoxud ularning bugungi kundagi umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sohasining ulushi 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 31,1 foizga o'sdi.

2014 yilda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu respublikamizda yaratilgan jami ish o'rinlarining qariyb yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sektorida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda.

Aholi bandligini ta'minlash, avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha zarur sharoitlar yaratish

mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy hamda yoshlarga oid davlat siyosatining eng muhim ustuvor yoʻnalishi boʻlib qolmoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qoʻllab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014 yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish oʻrni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgan.

Respublikada kichik biznes sohasida ishchi kuchi bandligi samaradorligini taʼminlash uchun quyidagi yoʻnalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni taʼminlash;
- mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini ragʻbatlantirish;
- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq boʻlgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan yengil va oziq-ovqatni qayta ishlash sanoatining koʻp mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;
- xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xoʻjaligiga taalluqli boʻlmagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga eʼtiborni kuchaytirish;
- ishsizlarni kasbiy oʻqitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shugʻullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish;
- kasb-hunar kollejlari bitiruv kurslarining oʻquvchilarini aniq korxonalarga biriktirish boʻyicha kompleks choralarni roʻyobga chiqarish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlariga, ayniqsa uzoq qishloq joylarda ish oʻrinlari tashkil etilishini nazarda tutadigan loyihalarni moliyalashtirish;

- ishsizlarni, birinchi navbatda yoshlarni, xotin-qizlarni, imkoniyati cheklangan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha, jumladan ularni kasbiy qayta tayyorlash, haq to'lanadigan jamoat ishlariga, ayniqsa transport, yo'l yoqasi va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurilishiga, qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joylar qurilishiga yuborish, shuningdek bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini o'tkazish yo'li bilan amaliy chora-tadbirlar amalga oshirish;
- viloyatd kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish, uy mehnati, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikni rivojlantirish, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga alohida e'tibor qaratish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ish bilan bandlik darajasining yanada oshishiga, aholining ijtimoiy muhofazasining kuchayishiga yanada keng yo'l ochib beradi.

3.2. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish istiqbollari

2014 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi bo'yicha tadbirlarining amalga oshirilishi mamlakatimizning barcha hududlarida prognoz parametrlari bajarilishini ta'minladi.

2014 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 967,4 mingta ish o'rni tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Amalda esa 973,5 mingta ish o'rni yaratildi yoki dastur ijrosi 0,6 foizga ortig'i bilan bajarildi.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

Yurtimiz hududlarida ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, ularning soni yil sayin ortib bormoqda (3.3.1-jadval).

2009-2014 yillar davomida mamlakatimizda yaratilgan ish o'rinlari soni 312,6 mingtaga yoki o'tgan 5 yilda 47,3 foizga ko'paygan. Ish o'rinlarining bunday o'sish tendentsiyasi barcha hududlarga ham xos bo'lgan. Ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan (6,4 foiz) Qoraqalpog'iston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni 73 foizga ko'payganini alohida qayd etish lozim.

3.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o'rinlari soni dinamikasi (birlik)³³

Hududlar	Y i l l a r					2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2010	2011	2012	2013	2014	farqi	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28602	48064	48118	48362	49 478	20876	173,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	55670	77889	77902	78292	78 364	22694	140,8
Buxoro	54266	72904	72998	73363	73 370	19104	135,2
Jizzax	29566	43297	43317	43515	43 858	14292	148,3
Qashqadaryo	59191	85734	86444	86890	88 335	29144	149,2
Navoiy	30139	39870	40321	40596	40 849	10710	135,5
Namangan	49672	70762	71039	71778	74 984	25312	151,0
Samarqand	63570	91712	92020	92700	93 427	29857	147,0
Surxondaryo	44296	63686	63706	64644	65 615	21319	148,1
Sirdaryo	28660	37899	37920	38623	39 852	11192	139,1
Toshkent	52719	85333	85500	86000	86 500	33781	164,1
Farg'ona	63286	90050	91173	91246	91 805	28519	145,1
Xorazm	37110	59192	59182	59575	59 774	22664	161,1
Toshkent sh.	64159	74140	80361	80663	81 253	17094,0	126,6
O'zbekiston bo'yicha	660906	940532	950001	956247	973 497	312591	147,3

2014 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlarining amalga oshirilishi natijasida ish bilan ta'minlanishga ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlarda, xususan, Farg'ona (75,5 ming ish o'rni), Samarqand (74,7 ming), Qashqadaryo (69,8 ming), Toshkent (68,4 ming), Andijon (62,8 ming), Namangan (59,3 ming), Buxoro (59,1 ming), Surxondaryo (51,9 ming) va Xorazm (47 ming) viloyatlarida ish o'rinlari ko'paydi.

³³ O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2014 yilda mamlakatimizda 973 mingda ortiq ish o'rni tashkil etilgan (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

3.2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni, birlik³⁴

T/r	Yo'nalishlar	Yillar		
		2010	2012	2014
	Barcha yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, jami (ish o'rni)	950 001	956 247	973 497
	shu jumladan:			
1.	Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316	57469	58 631
2.	Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408	365888	484 954
	shundan:			
2.1.	sanoatda	52 882	54941	55921
2.2.	qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy- joy qurilishi va ta'mirlash	43 632	43863	43988
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177	111871	117180
4.	Uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish,	207 972	216165	218 560
4.1.	shu jumladan, korxonalar bilan kooperatsiyada mehnat shartnomalari asosida kasanachilikni tashkil etish	62 518	55357	-
5.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqalar)	127 732	122399	123 622
6.	Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	61 320	72850	72994
7.	Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889	9605	13594
8.	Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187	-	-

Aytish joizki, 2014 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha aniq chora-

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

tadbirlarning amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarining bajarilishiga ko'maklashdi:

a) 2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dasturning, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlarining, 2012 yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturining, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlanish bo'yicha hududiy dasturlarning, hududiy investitsiya dasturlarining amalga oshirilishini davom ettirish 45,6 mingta ish o'rni tashkil etish imkonini berdi.

Yuqorida qayd etilgan dasturlar doirasida investitsion loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish va shunga muvofiq ravishda yaratilayotgan ish o'rinlarining ko'payishiga sanoat korxonalariga berilgan imtiyoz va preferentsiyalar, ya'ni mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan, chetdan olib kelinadigan qurilmalar, material va butlovchi qismlar uchun 2016 yilning 1 yanvariga qadar bojxona to'lovlaridan ozod qilish, sanoatning bazaviy sohalaridagi investitsiya loyihalari bo'yicha loyihagacha va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun imtiyozli kreditlar olish, investitsiya loyihalari bo'yicha «tayyor holda topshirish» shartnomalari asosida texnik iqtisodiy asoslari tasdiqlanadigan bir bosqichli tartibda loyiha hujjatlarini tayyorlashga doir imtiyoz va preferentsiyalarning berilgani va boshqalar jiddiy ta'sir ko'rsatdi;

b) kichik biznesni jadal rivojlantirish uchun imtiyozli soliq imkoniyatlari yaratilishini ta'minlash siyosati amalga oshirilishining davom ettirilishi, xususan, 2015 yilning 1 yanvaridan boshlab sanoat sohasidagi mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 6 foizdan 5 foizga tushirilishi kichik biznes sub'ektlarining bo'shab qolgan mablag'larini ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirish imkonini berdi, bu esa 281 mingta ish o'rni, yakka tadbirkorlikda 88 mingta ish o'rni tashkil etilishini ta'minladi.

Kreditlar ajratish orqali qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik sub'ektlarining ish o'rinlari tashkil qilish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. 2014 yilning yanvar-sentyabr oylarida tijorat banklari

tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 4,2 trillion so'mni tashkil etdi, bu esa 2011 yilning shu davri prognoz parametrlariga nisbatan 12 foiz ko'p demakdir.

Kichik biznes sohasida yaratilayotgan ish o'rinlarining salmoqli qismi xizmat ko'rsatish va servis sohasi ulushiga to'g'ri keladi. Ko'p hollarda aholining ko'payishi natijasida mehnat bozorida yuzaga kelgan yuqori demografik bosimga qaramasdan, kichik biznesning jadal rivojlanishi tufayli band bo'lgan aholi sonining jadal sur'atlarda oshib borishini ta'minlashga erishildi, bunda mamlakatimiz umumiy aholisi soniga nisbatan band bo'lganlar salmog'i ham ko'paydi;

v) huquqiy va normativ bazaning yaratilishi, kasanachilikning barcha turlarini, avvalambor, korxonalar bilan hamkorlikdagi mehnat shartnomalari asosidagi kasanachilikni, hunarmandchilik, shuningdek, qoramol boqish va uyda turli xizmatlar ko'rsatishga asoslangan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish 183,4 ming nafar shaxsni ishga joylashtirish imkonini berdi.

O'tgan davrda 8 mingdan ortiq sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish korxonalari kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mehnat munosabatlariga kirishdi, bu korxonalar kasanachilar bilan mehnat shartnomalari asosida birlashib, 51,6 ming kishi band bo'lishini ta'minladi.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikning rivojlantirilishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar 131,8 mingta ish o'rni tashkil etish imkonini berdi;

g) qishloq ho'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli ravishda oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini ko'paytirish, xususan, so'nggi uch yil ichida 540 dan ziyod yangi korxonaning ishga tushirilishi, 152 ta yangi mahsulot turi ishlab chiqarilishining o'zlashtirilishi va shuning natijasida qishloqda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi, qishloq xo'jaligi va unga kiradigan barcha tarmoqlar va ishlab chiqarish majmuasini modernizatsiya qilish, fermer va dehqon xo'jaliklarining

rivojlantirilishi va kengaytirilishi 105,5 mingdan ziyod ish o'rnini tashkil etilishini ta'minladi;

d) ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi, transport va kommunikatsiya qurilishining rivojlantirilishi, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining kengaytirilishi 58,8 mingta ish o'rnini yaratilishiga olib keldi.

Mazkur yo'nalishda ish o'rinlari yaratilishida investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan vazirliklar, idora va korxonalarga mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan, chetdan olib kelinadigan jihozlar, xomashyo va materiallar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyum va uzellar, texnologik hujjat va uskunalar uchun 2016 yilning yanvariga qadar bojxona to'lovlaridan ozod bo'lish bo'yicha imtiyozlar berilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi va shu orqali ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxini kamaytirish, bo'shagan mablag'larning salmoqli qismini mehnatga haq to'lash fondiga yo'naltirish hamda yirik infratuzilma ob'ektlarining qurilishi va qayta qurilishida ish o'rinlari yaratishni ta'minlashga imkon berdi;

e) to'xtab qolgan korxonalar, jumladan, tijorat banklari balansiga olingan bankrot korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash natijasida 10,7 mingta ish o'rnini tashkil etildi.

III- bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob bo'yicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirishning yangi kontseptsiyasi hisoblangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Aholi ish bilan bandligi tarkibini sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Unda ta'lim isohotlarining o'qitish va ta'limning insonparvarligi, demokratik xususiyati, ta'lim tizimiga egiluvchan, dinamik, moslashuvchan xarakterni berish, kasbiy tayyorgarlik sifatini takomillashtirish uchun tashkiliy shart-sharoitlarni shakllantirish kabi asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgan.

O'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kelishi va umuman jamiyatning ham, alohida shaxsning ham ehtiyojlarini qondirishi hamda kasb malakaga oid

bilimlarni egallagan kadrlarni tayyorlashi lozim. Bunda mamlakat iqtisodiyotining yanada jadal rivojlanishini va kasbiy ta'limga muhtoj bo'lganlar sonining ortishini hisobga olish lozim va xo'jalik sub'ektlarining tashkil etilishini prognoz qilish, kasbiy ta'limni beruvchi o'quv muassasalarining sonini prognoz qilish, iqtisodiyot sohalariga mutaxassislarni tayyorlash hajmini prognoz qilish, moliyaviy ta'minotni prognoz qilish kabi tadbirlarga tayanish talab qilinadi.

Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishi va holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan shakllantirish samaradorligi malakali kadrlarning taqchilligi, tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar tarkibi va kasbga tayyorlash va yo'naltirish bo'yicha o'quv yurtlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, ish izlovchi fuqarolar uchun bo'sh ish joylariga tanlovlar o'tkazish haqida axborotlar olishning qiyinligi kabi bir qator muammolar echimini yoritishni nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dissertatsiyada tahlil qilish va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida O'zbekistonda xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning bandlikni ta'minlashdagi rolini oshirish ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari to'g'risidagi quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

1. Xizmat ko'rsatishda ish bilan bandlik tarkibi, ish bilan bandlik tizimi elementlari va ular o'rtasidagi barqaror aloqalarni tashkil qiluvchilar yig'indisi bo'lib, turli gurux va kategoriyadagi ish bilan bandlarning umumiy ish bilan band bo'lganlardagi nisbati bilan belgilanadi. Ish bilan bandlik darajasi va tarkibini aholining ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos kelishi, milliy va xududiy mehnat bozori doirasida ish o'rinlari va mehnat resurslari o'rtasidagi muvozanat mezonlari bo'yicha baholash mumkin. Ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirish esa respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanti-rishning muhim vositasi bo'lib, mehnat faoliyati qatnashchilarining mehnat jarayoniga jalb etilishi yuzasidan ular o'rtasidagi munosabatlar, uning maqsadli yo'nalishini belgilash, maqbul iqtisodiy samarani tashkil etish imkonini beradi.

2. Xizmat ko'rsatishda aholining ish bilan bandligi tarkibini o'rganishga nazariy yondashuvlarini tadqiq etish asosida uning tarkibini tarmoqlar, kasb guruhlari, yosh va jins, ma'lumoti darajasi, mulkchilik shakllari, korxonalar turlari bo'yicha tasniflash taklif qilingan.

3. Xizmat ko'rsatishda ish bilan bandlik tarkibi samaradorligini oshirishda aholining jins-yosh tarkibi, kasbiy va umumta'lim tayyorgarligi, korxonalar o'lchamlarining o'zgarishi, mulkchilik shakllari va mehnat unumdorligi, ish haqining o'sishi singari muhim omillar katta rol o'ynaydi.

Jumladan, o'tgan besh yil davomida xizmat ko'rsatish tarkibida, jumladan fan va ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va aloqa, turizm, uy-joy kommunal xo'jaligida ishlovchi ishchilarning o'rtacha ish haqi miqdori yuqori sur'atda (278,3 foizga) o'sganligini ko'rsatadi. Biroq, xizmat ko'rsatishda eng kam (148,6 ming so'm) ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib ijtimoiy sohada ish bilan bandlar uchun malaka toifalarini kiritish tavsiya etiladi. Bunday sharoitlarda ishchilarga

mehnatning murakkabligi, uning ijodiy ko'rinishini aks ettiruvchi ma'lum malaka toifasi beriladi. Taklif etilayotgan tizim ma'lum ma'noda mehnatga haq to'lashning vaqtbay-mukofatli shakli bilan mos keladi. Bunda har bir xodimga muayyan ish turlarini bajarish bo'yicha me'yoriy topshiriqlar belgilanadi.

4. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan respublika iqtisodiyotida ish bilan band bo'lgan aholining ma'lumoti darajasi bo'yicha tahlili oliy va o'rta maxsus ma'lumotli ish bilan band bo'lganlar soni o'sganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kelishi va umuman jamiyatning ham, alohida shaxsning ham ehtiyojlarini qondirishi hamda kasb malakaga oid bilimlarni egallagan kadrlarni tayyorlashi lozim. Bunda mamlakat iqtisodiyotining yanada jadal rivojlanishini va kasbiy ta'limga muhtoj bo'lganlar sonining ortishini hisobga olish lozim va xo'jalik sub'ektlarining tashkil etilishini prognoz qilish, kasbiy ta'limni beruvchi o'quv muassasalarining sonini prognoz qilish, iqtisodiyot sohalariga mutaxassislarni tayyorlash hajmini prognoz qilish, moliyaviy ta'minotni prognoz qilish kabi tadbirlarga tayanish talab qilinadi.

5. Xizmat ko'rsatishni rivojlantirish orqali ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilashda respublikada mehnat bozori infratuzilmasi rivojlantirish aholida o'ringa ega bo'lib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan shakllantirish samaradorligi malakali kadrlarning taqchilligi, tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar tarkibi va kasbga tayyorlash va yo'naltirish bo'yicha o'quv yurtlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, ish izlovchi fuqarolar uchun bo'sh ish joylariga tanlovlar o'tkazish haqida axborotlar olishning qiyinligi kabi bir qator muammolar echimini yoritishni nazarda tutadi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– Xizmat ko'rsatish tarkibi bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni amalga oshirish.

–Xizmat ko'rsatishda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, ijtimoiy xizmatlarning yangi turlarini kiritib borish va uni jadal yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti xizmat talablariga moslashtirish maqsadida bozor qayta o'zgartirishlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga, uni rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirishga da'vat etilgan "Tadbirkorlik departamentlari" faoliyati takomillashtirilishi lozim.

–Xizmat ko'rsatishda tadbirkorlik muhitini yaratish orqali ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilashda qishloq joylarda bilim va mehnatni ko'p talab qiladigan xizmat sohasini jadal rivojlantirish, intensiv texnologiyalarga o'tish, aholining zarur harakatchanligini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yaratish muhim rol o'ynaydi.

–Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha O'zbekistonda qabul qilinayotgan turli Davlat dasturining muntazam nazoratini olib borish

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish orqali aholi ish bilan bandligi tarkibini takomillashtirish borasida sezilarli ishlar olib borilmoqda, biroq shu bilan birga ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha hali bir qancha ishlar olib borish kerakligi aniqlandi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyotga joriy qilish aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2012,– 45 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. – T.: Adolat, 2011. – 276 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni. (yangi tahrir). -Toshkent: Adolat, 1998. –7 b.
4. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997. - № 11-12.
5. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. -1997. - № 9.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Respublika jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori. –Toshkent: 1992. 31 dekabr, 606-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. –Toshkent: 2006 yil 5 yanvar, PF-3706-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ish bilan bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. –Toshkent: 2007. 6 aprel, PK-616- son.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish

metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. –Toshkent: 2007. 24 may, 106- son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi 616-sonli "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent: 2007 yil 6 aprel.

11. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan 1999 yil 24 aprelda 2/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 iyulda 762-son bilan ro'yxatga olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi. 2012 yil 27 fevral'

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

12. I.A.Karimov. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // "Xalq so'zi" gazetasi. 2015 yil 17 yanvar, № 14.

13. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2014 yil 19 yanvar, № 13.

14. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2013 yil 19 yanvar, № 13.

15. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.-T.: "O'zbekiston", 2012. 36 b

16. Karimov I.A. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.

17. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Xalq so'zi, 22.01.2011 y. №16
18. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash- barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. // –T.: Xalq so'zi, 2008. 9 fevral.-1-2 b.
19. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lida yanada izchil harakat qilish, uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir. –T.: “O'zbekiston”, 2007.
20. Karimov I.A. Yangicha hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. –T.: “O'zbekiston”, 2005, 34 b.
21. Karimov I.A. Mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish-taraqqiyot omili. –T.: “O'zbekiston”, 2004, 27 b.

IV. Asosiy adabiyotlar

22. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2012. -389 b. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik.-T.:Iqtisodiyot, 2013.-418 b.
23. Mirzakarimova M.M. Bandlikda ijtimoiy sheriklik:Monografiya. “O'zbekiston milliy entseklopediyasi”, 2013 – 202 b.
24. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. – T.: “TDIU” 2011, 420 b.
25. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Aholini ish bilan bandligi.O'quv qo'llanma.-T.: “TDIU” 2011, 230 b.
26. Rasulova D.V. Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. T.: “Moliya”, 2010, 276 bet.
27. Adamchuk V.V., Romashov O.V., Sorokin M.Ye. Ekonomika i sotsiologiya truda: Uchebnik dlya vuzov. – M.: YuNITI, 2009, - 407 –s.
28. Ata-Mirzayev O.B. Narodonaseleniye Uzbekistana: istoriya i sovremennost. – T.: Ijtimoiy fikr, 2009. –154-155.
29. Bulanov V. Рынок труда. Uchebnik. – M: Ekzamen, 2008

30. Veblen T. Teoriya prazdnogo klassa. – M.: Progress, 1984. –S.56.
31. Volgin N.A. Ekonomika truda: (sotsialno-trudovye otnosheniya) / Pod red. N.L. Volgina, Yu.D. Odegova. -M.: «EKZAMYeN», 2009, 736-s.
32. Genkin B.M. Ekonomika i sotsiologiya truda. Uchebnik dlya vuzov. —M.: Norma, 2007, 432-st.
33. Gelbrayt D.. Ekonomicheskaya teoriya i tseli obshchestva. -M.:Nauka. 1979. –406 s..
34. Jukov S., Reznikova O.V. Sentralnaya Aziya v sotsialno-ekonomicheskix strukturax sovremennogo mira. - Moskva: Moskovskiy obshchestvenniy nauchniy fond, 2001.
35. Juravlev P. Upravleniye chelovecheskimi resursami: opit industrialno razvitix stran. – M: EKZAMYeN, 2005.
36. Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. –138-b.
37. Zyablikov D.V. Teoreticheskiye aspekti effektivnoy zanyatosti naseleniya. // Elektronnyy jurnal «ISSLYeDOVANO V ROSSII», 2004. <http://jurnal>.
38. ILO. Year Book of Labour Statistics.-Geneva, 2011.
39. Kuzmin S.A.. Zanyatost: strategiya Rossii. - M.: Editorial,URSS, 2001. 233-s.
40. Keyns Dj. Obshchaya teorii zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: 1978.
41. Kokin A.Ya. Ekonomika truda. Uchebnik. - M.: Magistr, 2010. – 686 str.
42. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks:prinsipii, problemy i politika. (perevod s angl). -M.:Infra-M, 2002. -400 s.
43. Ryнок truda: Uchebnoye posobiye. Kollektiv avtorov pod ruk. akad. Abduraxmanova K.X.– T.: TFRYeA, 2009. 436 s..
44. Ryayansev SV. Mirovoy ryнок truda i mejdunarodnaya migratsiya: Uchebnoye posobiye. — Moskva; ZAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 2010. -303-s.
45. Sokolin B. Krizisnaya ekonomika Rossii: rubej tysyacheletiy - SPb.: «Liki Rossii», 1997. – 369-s.

46. Sbitova L.S. Struktura zanyatosti i effektivnost proizvodstva. - M.: Nauka, 2007
47. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov. – M.: Nauka, 1993.
48. Fridman M. Money and Economic Development/ M.Friyedman// 1973. №4. –S.70 .
49. Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi.– T.: Universitet, 2006;
50. Xasanov A. Ish bilan bandlik muammosi // J. Jamiyat va boshqaruv 2001. № 1, -B.27.
51. Shoyusupova N. Zamonaviy mehnat bozori faoliyati va tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi // Jurnal. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi 2007, № 10-11. b 44.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

52. Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 346 b.
53. Artikova D.A. Formirovanie zanyatosti naseleniya v Respublike Uzbekistan. – T.: Fan, 2005;
54. Gonorskaya A.V. Obespechenie zanyatnosti trudovix resursov respubliki Uzbekistan s ispolzovaniem potentsiala negosudarstvennix nekommercheskix organizatsiy // Avtoref. diss. kand. ekon. nauk.–T.: 2002.–S.13.
55. Zokirova N.K. Sotsialno-trudovie otnosheniya: mejdunarodniy i natsionalnie aspekti. - T.: Fan, 2008. – S. 88.
56. Mirsaidov D. Mirlliy iqtisodiyotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ish bilan bandlik tarkibining yangi yo'nalishi sifatida. // Respublika talabalar ilmiy amaliy anjumani ma'ruza tezislar to'plami. 2013 yil 6 aprel 2 qism.
57. Mirsaidov D. Iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligik tarkibini yaxshilash yo'nalishlari// Respublika talabalar ilmiy amaliy anjumani ma'ruza tezislar to'plami. 2013 yil 6 aprel 2 qism.

58. Mirsaidov D. Aholini ish bandligini ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish chora tadbirlari//Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish istiqbollari mavzusidagi magistratura talabalarining ilmiy amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. – T.: TDIU, 2013.

59. Tangriev L.X. Yoshlar siyosat sub'ekti: bandlik muammosi // Iqt. fan. nom. diss. avtoref. –T.: 2001, -B. 4.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

60. Obrazovaniye v Respublike Uzbekistan. 2011. Statisticheskiy sbornik. T. – 2012. – 281-s.

61. Doklad o chelovecheskom razvitii Uzbekistan – 2006. – S. 75.

62. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari. Toshkent: 2008-2012.

63. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. Toshkent: 2008-2012.

64. O'zbekiston Respublikasi savdo sanoat palatasi ma'lumotlari.

65. O'zbekiston raqamlarda 2014. Uzbekistan v tsifrax. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika ma'lumotlari.

VII. Internet saytlari

- [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz)
- [http:// www.wto.org](http://www.wto.org)
- [http:// www.goldenpages.uz](http://www.goldenpages.uz)
- [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)
- [http:// www.uza.uz.](http://www.uza.uz)
- [http:// www.ilo.ru](http://www.ilo.ru)
- [http:// www.imce.ru](http://www.imce.ru)

- [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).
- [http:// www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz).